

ZAMONAVIY REJISSURADA BADIY ASAR TAHLILI VA UNING SAHNAVIY TALQINI



- ❖ O'zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ “Rejissyorlik san’ati” (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi
- ❖ f.f.n., dots. Umarov Ma’mur

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan
tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

Tuzuvchi: O‘zDSMI “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi M.B.Umarov

Taqrizchilar: *Xorijiy ekspert:* Borzu Abdurazakov – Tojikiston davlat
akademik drama teatri rejissyori.

J.Mahmudov – O‘zDSMI “Musiqali, dramatik
teatr va kino san’ati” kafedrasida professori.

O‘quv -uslubiy majmua O‘zDSMI Ilmiy metodik
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “29” yanvardagi 1-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	12
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	21
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	46
V.	KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	50
VI.	KEYSLAR BANKI.....	53
VII.	GLOSSARIY.....	59
VIII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	62

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli, 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF–6000-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3920-son, 2018 yil 19 dekabrda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi PQ-4068-son, 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4584-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejaları asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng

qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

Modulning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

-“Rejissyorlik san’ati (turlari bo’yicha)” yo’nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko’nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;

-mutaxassislik fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

-“Rejissyorlik san’ati (turlari bo’yicha)” yo’nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

“Zamonaviy rejissurada badiiy asar tahlili va uning sahnaviy talqini” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- zamonaviy rejissuraga– fan, texnika hamda badiiy rivojlanishning ta'sirini;
- zamonaviy drammaturgiyadagi yangi tendensiyalarning tahlilini;

- teatr va kino san'atida – “Badiiy yaxlitlik”ning nazariy asoslarini;
- G'arb va Sharq teatrlaridagi zamonaviy tendensiyalarini;
- rejissurani o'qitishdagi ilg'or uslublardan sahnaviy atmosfera yaratishni;
- rejissuradagi to'g'ri tahlilning – sahnaviy talqindagi badiiy ahamiyatini;
- rejissyorning aktyorlar hamda rassom, kompozitor va texnik xodimlar bilan ijodiy hamkorlikda ishlashini;
- zamonaviy va tarixiy mavzulardagi spektakllarni sahnalashtirishda innovatsion usullardan foydalanish masalalarini;
- zamonaviy rejissurada texnik vositalarni qo'llash uslublarini;
- shou-biznes yo'nalishida rejissyorlik mahoratini;
- rejissuraning innovatsion shakllari va sahnalashtirishning zamonaviy jarayonlarini *bilishi* lozim.

Tinglovchi:

- XXI asr teatr san'atidagi ijobiy o'zgarishlarni “Rejissyorlik mahorati” moduli o'qitishida qo'llashni tadbqiq etish;
- xorijiy adabiyotlar tahlilini ta'lim jarayoniga tadbqiq etish;
- progonlar tahlili orqali ijodiy jamoaning badiiy qudratini oshirish usullarini o'rganish;
- rejissyorlik san'ati ta'limida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalardan foydalanish;
- sintezlashish jarayonida rejissyorni aktyorlar, rassom, kompozitor, baletmeystr hamda texnik xodimlar bilan ijodiy hamkorlikda ishlashi;
- Shekspirning teatr badiiy raxbarlariga belgilab bergan tizimni amaliyotga tadbqiq etish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- rejissyorlik mahorati fanlarini o'qitishda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish;
- rejissyorlik san'atining turli janrlarida yetuk sahna asarlari yaratish tendensiyalarini amalda qo'llash;
- rejissyorlik san'atida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;
- Janubiy Koreya san'at maktabi rejissyorlik mahorati fanlarini o'qitish metodikasi usullaridan foydalanish;
- rejissuraning innovatsion tendensiyalari va sahnalashtirishning zamonaviy uslublaridan foydalanish;

- zamonaviy teatr talablari asosida ish yuritish bo'yicha *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- zamonaviy rejissuraning asosiy prinsiplarini amaliyotga qo'llash;
- mashhur rejissyorlarning sahnalashtirish uslublarini o'z jamoasiga tadbqiq etish;
- rejissura san'atiga zamonaviy texnik vositalarni qo'llash uslublarini tadbqiq etish;
- rejissura (teatr, kino va televideniye, estrada va ommaviy tamoshalar) san'atida zamonaviy innovatsion g'oyalarni qo'llash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Zamonaviy rejissurada badiiy asar tahlili va uning sahnaviy talqini” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, audio-video yozuvlaridan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Mazkur modulning mazmuni o'quv rejadagi “San'atshunoslik fanlarini o'qitish metodikasi”, “San'atshunoslikning dolzarb masalalari” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan “Rejissyorlik san'ati” (turlari bo'yicha) va uzviy o'zaro bog'liq

boshqa fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish, ularning mazmunini yangi, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo'llash va talabalar bilimini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	Zamonaviy dramaturgiyadagi yangi tendensiyalarning tahlili	2	2		
2.	Rejissuradagi to'g'ri tahlilning sahnaviy talqindagi badiiy ahamiyati	4	4		
3.	Badiiy talqinda rejissyorning va teatr jamoasining ijodiy qudratini namoyon bo'lishi	4		4	
4.	Rejissura tarixida na'muna darajasida e'tirof etilgan talqinlar tahlili	4		4	
5.	Rejissyorlik mahoratini o'qitishga ilg'or horijiy tajribalar tadbiqu	2		2	
6.	Repertuarda rejissuraning hamda teatr jamoasining badiiy imkoniyatlarini namoyon bo'lishi	4			4
Jami: 20		20	6	10	4

Nazariy mashg'ulotlar mazmuni.

1-mavzu. Zamonaviy dramaturgiyadagi yangi tendensiyalarning tahlili

Zamonaviy dramaturgiyada "mumtoz uslub" an'alarini saqlanishi. Yeki ularni inkor qilib, "g'oyasizlik"ni namoyon bo'lishi. Zamon talabidan kelib chiqib, "zamondosh obrazi"ni yaratish masalalari. Kasb egalari mavzusi buyurtma dramaturgiyada yetakchilik qilishi. Dramaturgiyada komediya janriga extiyojini kuchayishi.

2-mavzu. Rejissuradagi to'g'ri tahlilning sahnaviy talqindagi badiiy ahamiyati.

Rejissuraning bosh masalasi bo‘lgan-to‘g‘ri tahlilga zamonaviy yondashuv. Asardagi mavzular sonini aniqlash-rejissyor talqinining asosidir. Mavzular orasidagi eng dolzarbiga urg‘u berish rejissyor uslubidir. To‘g‘ri talqin tomoshabinni g‘oyaviy da‘vatga anglashiga ko‘maklashishdir.

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni.

1- amaliy mashg‘ulot. Badiiy talqinda rejissyorning va teatr jamoasining ijodiy qudratini namoyon bo‘lishi.

Spektaklning ko‘rigi, avvalo, mavzuning dolzarbligini, g‘oyaning milliyligini yoki umuminsoniyiligini namoyon qiladi. Shuningdek teatr maxsulida sintezlashgan san‘at turlari bo‘lgan rejissura aktyorlik san‘ati nutq, kostyum, grim va butaforiyaning talqinga mosligini ko‘rsatadi. Xamkorlikda yaratilgan spektakl-teatr tomoshasining ijodiy qudratini namoyon qiladi.

2 - amaliy mashg‘ulot. Rejissura tarixida namuna darajasida e‘tirof etilgan talqinlar tahlili.

Badiiy yaxlit spektakllaryarata olgan teatr jamoasi yoki rejissyor ijodi tarix sahifalarida qolgan. Mannon Uyg‘ur sahnalashtirgan “Gamlet” yoki “Navoiy” si Yetim Bobojonovning “Boy ila xizmatchisi”, Toshxo‘ja Xo‘jayevning “Parvona” si Rustam Xamidovning “Qiyomat qarz”i, Bahodir Yo‘ldoshevning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” kabi talqinlar tinglovchilar tomonidan taxlil qilinadi.

3- amaliy mashg‘ulot. Rejissyorlik mahorati fanini o‘qitishga ilg‘or xorijiy tajribalar taqbig‘i.

Oliy ta‘lim tizimida tean san‘ati maktablari tushunchasi. Kechinma san‘ati maktabi talablari tushunchasi. Kechinma san‘ati talablari. Namoyish etish san‘ati maktablari talablari.

Ko‘chma mashg‘ulotlar mazmuni.

1-ko‘chma mashg‘ulot. Repertuarida rejissuraning hamda teatr jamoasining badiiy imkoniyatlarini namoyon bo‘lishi.

Teatr repertuarida rejissyor talqinini hamda teatr jamoasining badiiy imkoniyatlarini namoyon bo‘lishini amaliy tahlili

Tinglovchilar guruhi bilan, rejaga binoan, Toshkent shahridagi “Diydor” teatr – studiyasiga tashrif buyuriladi. Teatrdagi ijodiy muhit bilan tanishiladi. Teatr repertuaridagi spektaklning ko‘rigini tinglovchilar ““qog‘oz va qalam” bilan tomosha qilinadi. Ko‘rikdan so‘ng, ijrochilar hamda rejissyor bilan ijodiy jamoaning badiiy imkoniyatlari muxokama qilinadi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

SWOT tahlil:

S – strength (kuchli)

W – weakness (zaif)

O – opportunities (imkoniyatlar)

T – threatens (xatarlar)

Tahlil qilish uchun 2x2 o‘lchamdagi matritsa tuziladi:

S	W
O	T

Namuna Muzeyning raqobatli SWOT tahlili

	Manfaatli omillar	Manfaatsiz omillar
Ichki muhit omillari	<p>S – kuchli tomoni.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Yuqori malakali xodimlardan iborat jamoa. 2. Boshqa san’at muassasalari bilan o‘rnatilgan manfaatli aloqalar. 3. Ko‘rgazmalar tashkil etishda innovatsion shakllarni qo‘llash. 	<p>W – zaif tomonlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Boshqaruv jarayonining salbiy tomonlari (sustkashlik). 2. Ayrim mutaxassisliklar bo‘yicha yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi (m-n: marketolog)
Tashqi muhit omillari	<p>O – imkoniyatlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O‘z eksponatining noyobligi bo‘yicha muzeyning taniqlilik darajasi. 2. Deyarli kuchli raqobatning mavjud emasligi. 3. Xalqaro madaniy aloqalarda qatnashish imkoniyatlari. 	<p>T – xatarlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Obyektiv san’at talabining pasayib ketishi. 2. Ichki raqobat: mutaxassis kadrlarning boshqa ish joyiga o‘tib ketishi. 3. Tashqi raqobat: Ko‘plab muzey va galereyalarning mavjudligi.

Xulosalash (Rezyume, Veyer) metodi.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati

shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi

- trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;
- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;
- har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
- Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu.

Namuna:

Galereya auditoriyasini segmentlash					
Daromadlari bo'yicha		Yoshi bo'yicha		Jinsi bo'yicha	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

"Keys-stadi" metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi: F –fikringizni bayon eting, S – unga sabab ko‘rsating, M – misol keltiring, U- umumlashtiring.
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 ballgacha baholanishi mumkin.

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			

“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			
--	--	--	--

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo’lgan ma’lumotlar o’qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to’liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg’ulot yakunlanadi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarning mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o’zlashtirish darajasini aniqlash, o’z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo’llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg’ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo’lgan so’zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o’quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo’llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o’qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va to’liq izohini o’qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to’g’ri javoblar bilan o’zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o’z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Aktyorlik	Tomashabinlarga asarda berilgan voqeani to’laqonli yetkazishdagi ma’sul shaxs ijrosi	
Rejissyora	Jamiyatning keng auditoriyasi to’g’ridan aloqa o’rnatib, ularning madaniy hordiq chiqarishlariga ko’maklashish, ommani jalb qilish	
Film va spektakl	Ma’lum bir voqeaga asoslangan dramatik va hajviy sahna ko’rinishlarga ega bo’lgan tomoshabinga ma’naviy ozuqa beradigan sahna ko’rinishi va teleekran namoyishi	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.


Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Venn diagrammasida ishlash qoidalari:



“Blits-o‘yin” metodi.

Metodning maqsadi: o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4.«To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Zamonaviy dramaturgiyadagi yangi tendensiyalarning tahlili (2 soat)

Reja:

1.1. Zamonaviy dramaturgiyada “mumtoz uslub” an’alarini saqlanishi yoki ularni inkor qilib, “g’oyasizlik”ni namoyon bo‘lishi.

1.2. “Zamondosh obrazi”ni yaratish masalalari. Dramaturgiyada komediya janriga extiyojini kuchayishi.

Tayanch iboralar: dramaturgiya, tendensiya, pyesa, tomosha teatri, spektakl, teatr jamoasi, badiiy asar da’vati, personaj xarakteri, ijodkorlik tuyg’usi.

1.1. Zamonaviy dramaturgiyada “mumtoz uslub” an’alarini saqlanishi yoki ularni inkor qilib, “g’oyasizlik” ni namoyon bo‘lishi.

Jahon mumtoz dramalari, xoh u Sharq, xoh G‘arb dramaturgiyasi namunalari bo‘lsin, har bir davr teatri uchun muhim adabiy oziqdir. Chunki mumtoz asarlarni sahnalashtirish teatr ijodiy qiyofasini namoyon etishdagi ahamiyatli jarayon hisoblanadi.

Shuning uchun mamlakatning har bir teatri doimo ana shunday asarlarni sahnaga qo‘yishga intiladi. Bizning zaminga yevropa tipidagi zamonaviy teatr kirib kelganidan to mustaqillik davrigacha Sofokl, Shekspir, Gotssi, Shiller, Molyer, Goldoni, Gogol va boshqa ko‘plab jahon mumtoz dramaturgiyasi namoyandalarining asarlari o‘zbek teatri repertuarini boyitib keldi. Ularning asarlari asosidagi spektakllarda davrning ijtimoiy va mafkuraviy qarashlari o‘z aksini topdi.

O‘z navbatida, mazkur sahna asarlari o‘nlab o‘zbek teatri ijodkorlari va san’atkorlarini barkamollik cho‘qqisiga olib chiqdi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, teatrlarda jahon mumtoz dramalariga bo‘lgan e’tibor kamaygani yo‘q. Albatta, bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqib, respublika teatrlari komediya va maishiy mavzudagi dramalarni sahnaga olib chiqishga ko‘proq kuch sarflayotgani ayni haqiqat.

Biroq shunday maishiy spektakllar fonida umuminsoniy g‘oyalarga ega xorijiy mumtoz asarlar ham sahnalashtirilmoqdaki, ular rejissurada o‘ziga xos izlanishlar manbaiga aylanmoqda. Ma’lumki, teatr – davr mahsuli. Jahon mumtoz asarlarining sahna talqiniga ham shu nuqtai nazardan yondashuv talab qilinadi.

Xo'sh, shunday asarlarning sahna talqini bugungi kun kishisini o'ylantirayotgan muammolarni o'zida aks ettiryaptimi? 2002 yili Karlo Gotssining dunyo teatrlarida kamdan-kam sahna yuzini ko'rgan «Qirol bug'u» asari Respublika Yosh tomoshabinlar teatrida rejissyor Olimjon Salimov tomonidan sahnaga qo'yildi. Yevropa ma'rifatparvarlik davri italyan teatrining yorqin vakillaridan biri Karlo Gotssi o'z asarlari orqali nafaqat ma'rifatparvarlikka xos aql-idrok va his-tuyg'uni mutanosib ifoda etish, balki komediya del arte an'analarini yanada rivojlantirish, zamonaviylashtirishni maqsad deb bildi.

Muallifning tragikomik ertak janridagi asarlari orasida «Qirol bug'u» dramasi sehrli muhiti, qahramonlarining kutilmagan qiyofa o'zgartirishlari bilan ajralib turadi hamda sevgining yuksak kuch-qudrati haqida hikoya qiladi. Rejissyor O.Salimov yozuvchi Tohir Malik yordamida asar matnini o'zbekchalashtirish ustida qunt bilan ish olib bordi.

Natijada «Ikki mo'jiza» nomli «Qayg'uli kulgu» janridagi spektakl sahnaga olib chiqildi. Nega qayg'uli kulgu? Rejissyor ikkiyuzlamachi va hokimiyatparast Tartalyaning yovuz maqsadini fosh etarkan, uning o'z joniga o'zi jabr bo'lgani ustidan kuladi. Mazkur kulgini O.Salimov qayg'uli ohangda ifodalab, bu salbiy qahramonning maqsadiga o'zgalarning to'kilgan qoni va baxtsizligi evaziga erishishga intilishida namoyon bo'ldi.

Rejissyor spektaklda komediya del artening yorqin shakllaridan foydalandi, bu ayniqsa, aktyorlar ijrosi badihago'ylik va bo'rtirma bilan boyitilganida namoyon bo'ldi, ularni O.Salimov o'zbek zamonaviy sahna san'ati bilan muvofiqlashtirishga harakat qildi. Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash ushbu spektaklning asosiy konfliktiga aylandi. Barcha ertaklarda bo'lganidek, «Ikki mo'jiza»da ham yaxshilik g'olib keladi.

Rejissyor Tartalya obrazida manfur niyatini amalga oshirish uchun qing'ir yo'llar bilan sof mehr-muhabbat tuyg'usi hamda shohlik mansabini o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'lgan shaxsni talqin etdi. O.Salimov mazkur rolga Farhod Aminovni jalb qildi. Aktyor ijrosida bo'rttirish orqali Tartalyaning yovuz maqsadini yaqqol ifodalashga intilish mavjud. Uning munofiqligini anglatib turuvchi niqobi ham qahramon qalbidagi vahshiy o'y-qarashlarni namoyon etdi. Bular rejissyorning del arte niqoblar va masxarabozlik teatrini sahnada aks ettirish maqsadiga to'la mos tushdi.

O'z navbatida, Tartalya – F.Aminov ikkilanuvchan, pala-partish va qo'rqqoq. Personaj xarakteridagi ana shu zaiflik uning yengilishidagi asosiy omil bo'lganini rejissyor va aktyor sahnada ifoda etdi. Aslida ham del arte niqoblarining janubiy (neapol) kvartetidan biri bo'lgan Tartalya maydon tomoshalarida asosan quyonyurak qozi sifatida gavdalangan. Biroq ularning farqi shundaki, italyan xalq

(yarmarka) teatrida mazkur obraz ijobiy qahramon bo‘lgan bo‘lsa, Gotssi uni o‘z asarida salbiy etib ifodaladi.

Rejissyor aktyor M.Abdulxairov ko‘magida esa Truffaldino obrazini del arte teatri asl an‘analari va uslubiga mos tarzda talqin etdi. Truffaldino – M.Abdulxairov o‘zida komediya del arte personajlari bo‘lgan Arlekin va Pulchinellaga xos soddalik, tentaklik, o‘z navbatida, kulgiga boy jihatlarini mujassam etdi.

Rejissyor O.Salimov hamda rassomlar N.Glubokina va F.Gazizovning aktyorlar uchun vujudga keltirgan ikki xil niqoblari spektaklning obrazli yechimida muhim rol o‘ynadi. Har bir ijrochiga yuzi va boshining ortiga niqoblar taqildi. «Niqoblar nafaqat ma‘lum ijtimoiy tipni ifoda etadi, balki aniq ta‘sirchan tusni o‘zida aks ettiradi» Ular spektaklda aktyorlarning badiha va bo‘rttirishga asoslangan ijrosini to‘ldirib, yanada yorqinlashtirdi. Teatr va rejissyor Gotssining dramaturgiyasiga murojaat etarkan, sahnalashtirish nuqtai nazaridan murakkab, ammo mazmunan boy asarni yorqin ifoda vositalari, obrazli yechimga plastik yondashuv, masxarabozlik tomoshalariga xos hazilmutoyiba, ta‘sirchan niqoblar, quvnoq ashula va raqslar yordamida talqin etdi.

Bularning barchasi rejissyorlik fikr va maqsadiga bo‘ysundi, aktyorlarning yengil ijrosi hamda rassomlar N.Glubokina va F.Gazizovning majoziy ssenografik yechimi bilan yorqinlashdi. O.Salimov dunyo madaniyati va san‘ati rivojida alohida o‘ringa ega bo‘lgan komediya del arteni o‘zbek sahnasiga moslashtirgani rejissuradagi jahon teatri yutuqlarini o‘rganish, targ‘ib qilish va o‘zbek teatri san‘ati bilan uyg‘unlashtirish yo‘lidagi muhim izlanishga aylandi.

O‘zbek Milliy akademik drama teatri 2003 yili Yevropa Uyg‘onish davrining yetuk vakili Uilyam Shekspir ijodiga murojaat etdi. Dramaturgning «Gamlet» tragediyasi barcha davrlarga taalluqli ijtimoiy muammolarni ko‘targani bilan qadrlidi. Gamlet obrazi haqiqat uchun kurashuvchi, xiyonat, razolat, yolg‘on, ikkiyuzlamalik, jaholat egallagan jamiyatni keskin qoralovchi, shunday jamiyatda yashagandan ko‘ra o‘limni afzal biluvchi qahramon sifatida teatr ijodkorlari va tomoshabinlari qalbini necha yillardan beri larzaga solib kelmoqda.

Shekspir o‘z asaridagi mudhish voqealarni qirol saroyida aks ettirsada, ular aslida jamiyatning istalgan qatlamida, oddiy xalq orasida ham ro‘y berishi mumkin. Shu jihatdan, unda ko‘tarilgan muammolar butun insoniyatga tegishli. Xo‘sh, bugungi kungachi? Mustaqillik davrida «Gamlet»ni sahnada talqin etish o‘zini oqlaydimi? Gamlet obrazini hozirgi zamon bilan hamnafas etib gavdalantirish mumkinmi?

Mazkur tragediyani T.Azizov sahnalashtirishga kirisharkan, yuqoridagi savollarga javob izlashga kirishdi hamda asarning bugungi kunga ham taalluqli jihatlarini ma‘naviy-axloqiy tomonida, degan xulosaga keldi. Rejissyor asarni qahramonona-falsafiy tragediya janrida talqin etdi. Gamletning qahramonligi

otasining qotilini aniqlab, u va uning safdoshlariga qarshi kurashganidagina emas, balki jamiyatni xiyonatkorlardan tozalab, unda adolat o'rnatishga intilganida namoyon bo'ldi. Buning natijasida asardagi axloqiy qarashlarga urg'u berilgan talqinda tragediyaning maishiylashib qolmasligiga erishildi hamda spektakl ko'lami kengroq ko'rinishga ega bo'ldi.

Spektakl romantik pafoslardan holi, psixologik kechinmalarga boy tarzda sahnalashtirildi. Rejissyor Gamletning zamonaviy ko'rinish kasb etishi uchun hozirgi tez sur'atlarda rivojlanib, o'zgarayotgan davr kishisining sahnada o'z aksini topishiga harakat qildi.

Natijada bosh qahramon obrazi rejissyor tomonidan har bir sahnada mulohazakor, «yetti o'lchab bir kesadigan», o'z navbatida, keskin va shiddatli, qarshisida paydo bo'lgan tugunlarni yechishda tezkor qaror chiqarishga intiladigan komil shaxs sifatida talqin etildi. Unda shahzodalarga xos aslzodalik yo'q, Gamlet qiyofasida jamiyatni ma'naviy tanazzuldan qutqarishga bel bog'lagan oddiy isyonkor inson mujassam bo'lgan. Shekspir tragediyasidagi «Davr izidan chiqdi, uni qayta iziga solish mening zimmamga tushdi» iborasi rejissyor tomonidan Gamlet obrazining leytmotivi shaklida ifodalandi hamda spektaklning bir necha sahnalarida uning ijrochisi T.Saidov tomonidan so'zlandi. Bu asarning avvalgi talqini andozalaridan farq qilishiga sabab bo'ldi. P

rofessor T.Tursunov «shu besh xil qaytariq «izdan chiqqan davr»ni izga solish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan Hamlet xayoloti, iztirobi, biron qarorga kelish yo'lidagi kechinmasi jarayonining ko'rsatkichi sifatida o'rta qo'yiladi. Oxir-oqibat ijroda aktyor xatti-harakatiga aniqlik kiritadi» deb mulohaza yuritgan. Bizningcha, ushbu so'zlar Gamlet roli ijrochisi T.Saidovning so'z ohangida hech qanday o'zgarishlarsiz ifodalanib, spektaklda mazkur iboraning qayta-qayta aytilishi o'zini oqlamagan hamda siyqasi chiqqan bir gapga aylanib qolgan. Shuningdek, asardagi eng asosiy monologlarni ifodalashda rejissyor aktyordan sokinlik talab qildi. T.Saidov ham soxta pafosdan qochish maqsadida monolog ijrosiga og'irbosiqlik bilan yondashdi. «Natijada, qanchadan beri minglab tomoshabinlarni larzaga solib kelayotgan shoh-monolog – «YO o'lish, yo qolish» jo'nroq bir gapday, har doim eshitib yurib, ko'nikib qolingan xonaki gurungday tuyuladi» [6]. Demak, rejissyor va aktyor monolog ijrosida «oltin markazni» topa olmagan, oqibatda bu monologning ta'sirini susaytirgan. Shunga qaramay, rejissyor vazifasiga ko'ra, T.Saidov Gamletni pok vijdonli ulug'lovchi, haqiqat va adolat uchun kurashuvchi, odamlarning hirs, o'tkinchi hoy-yu havas, mansab va boylikka o'chlik, diyonatsizlik singari illatlarini keskin qoralovchi etib sahnada gavdalantirdi.

Rejissyor tragediyaning yana bir qahramoni Ofeliyani boshiga tushgan savdolarini ko'tara olmagan bechora sifatida talqin etdi. U mazkur obrazga yosh aktrisa Gulchehra Eshonqulovani tanladi. Lirik, romantik rollar ijrochisi sifatida

tanilgan aktrisa Ofeliya roliga ham shunday ruhiyat baxsh etdi. Uning Ofeliyasi yerda, odamlar orasida emas, o‘zining xayolotidagi olamida yurgandek taassurot uyg‘otdi. Ofeliya – G.Eshonqulova oq-qorani ajrata olmaydigan, murg‘ak qalbli qizaloq. Rejissyor va aktrisaning obraz yechimiga bunday yondashuvi natijasida Ofeliya davr emas, bolalarcha ishonch qurboni etib ifodalandi. Biroq uning ijrosida o‘zgarish sezilmay, monoton bo‘lib qoldi.

Ayniqsa, Gamlet – T.Saidovning «Cherkovga bor!» degan xitobi Ofeliya – G.Eshonqulovanning holatida keskin burilish yasashi kerak. Shu o‘rinda Moskva Lenkom teatrida sahnalashtirilgan «Gamlet» (rejissyor A.Tarkovskiy)da Ofeliyani ijro etgan Inna Churikovanning spektakl shu nuqtasidagi holat o‘zgarishini ta’kidlash joiz: «Ofeliyaning qalbida birdan nimadir uzilgandek bo‘ldi, u shahzodani yuziga shapaloq urdi... Shu lahzada, shahzodaga hamda rad etilgan, osmondan yerga uloqtirilgan o‘z ko‘ngliga rahm-shafqat arosatida qolgan paytda, uning qarshisida «O‘lishmi yo qolish?» degan muqarrar savol paydo bo‘lgandek tasavvur uyg‘onadi» G.Eshonqulovanning Ofeliyasi esa Gamlet – T.Saidov xitobini sokin va oddiy qabul qilishi predmetning susayishiga olib keldi.

T.Azizov Shekspirning “Gamlet” tragediyasini o‘tgan asr 30–50-yillarida o‘zbek teatrida qat’iy o‘rnini topgan «kechinma san’ati» an’analari asosida sahnalashtirdi. Muallif asari qahramonlaridagi xarakterlilik sahnada ham o‘z ifodasini topdi.

Albatta, ushbu spektakl tragediyaning avvalgi talqinlari kabi jarangdor tus olmadi. Biroq teatr repertuari maishiylik ketayotgan bir paytda, bunday jahon mumtoz asarlariga murojaat qilinishini oqlash kerak. Ingliz teatri va dramaturgiyasining yana bir yorqin vakili Jorj Gordon Bayron o‘z asarlari bilan romantizm davrini gullab-yashnashiga hissa qo‘shgan ijodkorlardan. Uning dramalari inqilobiy qarashlar bilan sug‘orilgan bo‘lib, jozibali shoirona ruhiyati, yuksak insoniy his-tuyg‘ularni tarannum etishi bilan ajralib turadi. Ana shunday asarlaridan biri «Qobil» tragediyasi Yevropa romantik dramaturgiyasining yuqori cho‘qqisi bo‘ldi. Qobil obrazi orqali dramaturg fransuz burjua inqilobida begunoh to‘kilgan qonlarga javob berish lozimligini olg‘a surdi. «Bayron «Bibliya» rivoyatiga suyanib, insoniyat tarixining keyingi o‘n yilliklarida kelib chiqqan umumbashariy muammolarni badiiy idrok etish bilan haqiqat izlovchi faylasuf, komil insonparvar mutafakkir sifatida o‘zini ko‘rsatdi»

Demak, asarda davrning ijtimoiy-siyosiy muammolari ko‘zga tashlandi. Mazkur asar Nafas Shodmonov tomonidan tarjima qilindi. Tarjima hamda sahna talqinida asarga o‘zgartirishlar kiritilib, uning axloqiy jihatlariga asosiy urg‘u berildi. U 2014 yili rejissyor Avliyoquli Xo‘jaquliyev tomonidan Samarqand viloyat musiqali drama teatrida sahnalashtirildi. Spektaklda Odam ato va Momo havo qizlaridan biri Abuda obrazi Bayron asaridagidek go‘zal emas, aksincha chehrasida

nuqsoni bor, ammo ko'ngli toza qiz sifatida talqin etildi. Ota-ona rayi bilan uning turmush o'rtog'i bo'lgan Qobil esa ukasining ayoli go'zal Iqlimaga muhabbati tufayli qalbida isyon olovi paydo bo'ladi. Shu tariqa rejissyor barcha zamonlarga taalluqli bo'lgan axloqiy tushunchalarning to'qnashuvini o'z talqinida aks ettirdi. Bu bilan Bayron asari qahramonlarini rejissyor fazoviy makonlardan yerga tushirdi va oddiy odamlarga yaqinlashtirdi.

Mumtoz dramaturgiya namunalarini, roman, qissa, novellalarning adaptatsiyalarini, tok-shou, hordiq dasturini, yirik tantana va tadbirlarni namoyish qilishda rejissyorning o'rni va roli beqiyos bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu kasbni egallaydigan shaxs uning sir-asrorlarini, qonun- qoidalarini, o'zlashtirgan, maktabini o'rgangan bo'lishi lozim bo'lib qoldi. Boshqara olish iqtidori hammaga nasib qilmagan, bu qobiliyatni tarbiyalash, yo'lga solish, yo'naltirish mumkin. Rejissura asoslari shu soha mutaxassisligini egallagan talabalarga yordam beradi. Rejissyorlik sanati hayotni teatr, kino, televideniye sanati ifoda vositalari orqali tasvirlash badiiy inikosidir. Fan bilan sanatning tafovuti nima? Aslini olganda fan hayot qonuniyatlarini o'rganadi, isbotlaydi, mantiqiy tahlil qiladi. Sanat esa o'sha qonuniyatlarni tasvir orqali badiiy obrazlarda ko'rsatadi, ishontiradi. Sanatning ham fanning ham asosiy maqsadi oddiy hayot, inson idroki, uning turmush tarzi hisoblanadi. Faqat sanatning fandan tafovuti shuki, u insonni o'rganadi, insonning his tuyg'ulari, kechinmalari, uning ruhiyati bilan shug'ullanadi. Fan insonning biologik xususiyatlarini, jismoniy tomonlarini, psixik holatlarini o'rganadi. Sanat shularning barchasini bir ko'lamda, bir vujud qiyofasini, uning hayotdagi o'rnini ko'rsatib beradi.

Demak, sanatning o'ziga xos xususiyati bu badiiy qiyofa ekan. Qiyofalar orqali fikrlash, uni yaratish sanatning burchi, asosiy vazifasidir. Mo'yqalam ustalari ham, grafiklar ham, haykaltaroshlar ham, bastakorlar ham, teatr, kino, televideniye ijodkorlari ham badiiy qiyofalar yaratish ustida bosh qotirishadi. Badiiy qiyofalarsiz sanatni tasavvur qilish mumkin emas. Barcha sanat turlarining, ijod xodimlarining asosiy maqsadi badiiy qiyofalar yaratishdir.

G'oyasizlik mezonlari muayyan shaxs, toifada uchraydigan chuqur bilimga ega bo'lmaslik, e'tiqodning sustligi, mas'uliyatsizlik, aniq maqsadi yo'qligi kabi mezonlarga tayanadi. G'oyasizlik oxir-oqibat shaxs, toifa, qatlamlarning o'zga, begona, yot g'oya va mafkuralar ta'siriga berilishiga olib keladi. Uning fikrida faqatgina maishiy muammolar: yeyish, kiyinish va boshqa shakldagi o'y-xayollar uning hayotida ustuvor hisoblanib, boshqa qadriyatlar uning oldida o'z qadrini yo'qotadi.

G'oyaviylikning mezonlari buzilsa, qadriyatlar qadrsizlanadi, o'z ahamiyatini yo'qotadi. Dramaturgiya da g'oyasizlik tushunchasi personajlardagi ichki

muvozanatning buzilishi, shaxsiy, milliy, umuminsoniy darajalarda ijodiy parokandalikni yuzaga chiqaradi.

1.2. “Zamondosh obrazi” ni yaratish masalalari. Dramaturgiyada komediya janriga extiyojini kuchayishi.

O‘zgan asrning 80-90 yillarida o‘zbek dramaturglari asarlarida butun mamlakat ijtimoiy hayotida birlamchi hisoblangan zamonaviy voqelikning amaliy jihatlari o‘z ifodasini topdi. Bu asarlarda «zamonaviylik» mavzusi ma’rifatparvarlik kayfiyatiga ega bo‘lib, ular sahna orqali targ‘ib etildi.

Dramaturglar «zamondosh obrazi»ni, uning ma’naviy dunyosini har tomonlama ochib berishga intilgan holda, mehnatkashlar faolligini oshib borishini namoyish etdilar, shuningdeq odil jamiyat faravonligi uchun kurashuvchilarining siymolarini yaratdilar. Mualliflarning ma’lum bir qonuniyatlarga asoslanishi va murosasizligi ularga hayot qiyinchiliklarini soddalashtirmasdan amaldagi ziddiyatlarni ifodalash va bartaraf etishga imkon berdi. Tajriba shuni ko‘rsatadi-ki, dramaturglar voqelikka qanchalar chuqur kirib borsalar, shunchalik tor ma’nodagi bayonchilik va uning ko‘rinishlaridan andoza olishdan voz kechishgan.

Oxirgi 10-15 yildagi dramaturgiyadagi ba’zi bir turg‘un jarayonlarga qaramasdan uning ildamligini ta’minlovchi tamoyillar belgilandi. Mazkur tamoyillar, avvalambor, dramaturglarning «ilmiy texnika revolyusiyasi davri» kishisining ma’naviy va axloqiy dunyoharashini anglab yetishga, qahramonlarharakterlaridagi ijtimoiy va ma’naviy aqidalarni birligini ifodalash, uning ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelayotgan o‘sha ahloqiy shaxsiy qolliziyalarini – qarama-qarshi harashlarni, intilishlar va manfaatlar to‘qnashuvlarni yoritib berishga intilishlari bilan bog‘liq. I.Dvoreqkiyning «Chelovek so storoni» («Chetdan kelgan odam»),

G.Bokarevning «Stalevari» («Po‘lat erituvchilar»), A.Veyqler va A.Misharinning «Den-denskoj» («Kun bo‘yi»), A.Grebnevning «Iz jizni delovoy jenshini» («Ishbilarmon ayol hayotidan»), R.Ibragimbekovning

«Svoyey dorogoy» («O‘z yo‘limdan») va «Neopublikovannij reportaj» («Nashr etilmagan reportaj»), M.Shatrovning «Pogoda na zavtra» («Ertangi ob-havo»), A.Gelmanning «Protoqol odnogo zasedaniya» («Bir kengash bayonnomasi»), «Obratnaya svyaz» («Aks aloqa») va «Mi, nijepodpisavshiyesya» («Biz quyida imzo chekuvchilar») singari alohida qiziqish uyg‘otuvchi «ishlab chiqarish mavzusi»dagi pyesalarda «ilg‘or zamondosh»lar – mehnatkashlar, qurilish va ishlab chiqarish sohasi rahbarlarining mehnat faoliyatiga bog‘liq fazilatlar va xulq-atvorlarini anglab turib sharhlash mualliflar diqqat markazida bo‘lgan. «Bugunga kelib, ishlab chiqarish konflikti va bu konfliktidagi

inson karakteri ko‘p jihatdan umumdavlat ziddiyatlarini aks ettiradi. Odamlar davlat muammolarini yechadilar, insonning fuharolik faolligi, uning shaxsiy ma‘suliyati mislsiz o‘sdi», – deb yozadi bu borada I.Vishnevskaya.

Haqiqatdan ham, noantagonistik hususiyatlarga ega real ziddiyatlarni o‘z ichiga olgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni boshharuv darajasiga talab ortdi. Noantagonistik ziddiyatlardan kelib chiqqan muammolar va konfliktlarni bartaraf etish jamiyatning barcha jabhalarida faoliyat olib borayotgan kishilarning saviyasini mukammalligini kuchaytirishni talab qiladi.

1970-yillar hamda 1980-yillar boshlarida O‘zbekiston teatrlari repertuarlarida dramatik konfliktlar va badiiy obrazlarda hayotning turli muammolari o‘zining ma‘lum ifodasini topgan «ishlab chiqarish» mavzusiga bu kuchli qiziqishni uyg‘otuvchi asarlar paydo bo‘ldi. Ular orasida A.Muxtorning «Samandar», M.Boboyevning «Yer tomiri», H.Azimovning

«Sadoqat», O.Matchonning «To‘g‘on», J.Jabborovning «O‘jarlar» pyesalari asosida sahnalashtirilgan spektakllar mavjud.

Bu yillar mobaynida turli ahloqiy-ma‘naviy muammolarni yorituvchi boshqa dolzarb mavzularda ham ko‘plab asarlar yaratilgan. Uyg‘unning

«Parvoz», O‘.Umarbekovning «Komissiya», «Qiyomat harz», «O‘z xohishiga binoan», M.Karimovning «Insonlikka nomzod», M.Boboyevning «O‘ttiz yoshlilar», «Toshkentdan kelgan mehmon» («Gurung»), SH.Boshbekovning

«Tikansiz tipratikanlar», «Oq otlar uchun vals», «Taqdir eshigi» pyesalarida mualliflar hayot qarama-qarshiliklarini va zamondoshlar karakterining yangi qirralarini ochib beradilar. Kamdan-kam hollarda bu pyesalarning syujet va karakterlariga bir yoqlama baho beriladi, ularning ba‘zilarini dramatik konfliktlarini esa ijobiy yoki salbiy personajlar karakterlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri, yuzaki to‘qnashuvi sifatida ko‘rib chiqib bo‘lmaydi. Asosiysi, aytib o‘tilgan pyesalarda, hatto, kurash ularga folakat va azob-uqubat olib kelganda ham, o‘z maqsadiga intilayotgan bosh qahramonlar ma‘naviy mezonlari yuksakligi e‘tiborni jalb qiladi.

Davrning «ilg‘or zamondosh» obrazini yaratish muammolarini yechishda o‘zbek mualliflari yangi qadam tashlashga intilganlar. Ular o‘tgan yillar dramaturgiyasi tajribalaridan kelib chiqib, tomoshabinlar ishonadigan va ibrat oladigan yorqin, badiiy yetuk ijobiy qahramonlar obrazi orqali ma‘naviy, axloqiy barkamollikni ifodalashga o‘rinadilar. Ammo bunday obrazlar yaratish muammosini real karakterlarni ko‘p qirrali ziddiyatlarini o‘zida jamlovchi dramatik konfliktning yorqin va teran izohlaydigan tabiatini aniq va chuqur anglamasdan hal etib bo‘lmaydi. O‘ziga xos (alohida) hissiyotni chuqur boshdan kechirgani singari Inson karakterida uning davr bilan aloqadorligini u boshidan kechirgan chuqur hissiyotlar orqali ishonchli ochib berish asarni haqqoniyligi va badiiyligining zaruriy sharti bo‘lib kelgan.

Drama uchun markaziy bo'lgan konflikt va harakter muammosi barcha davrlarda ham qiziqish kasb etgan va bu tasodif emas. Qiziqish dramaning, keyinchalik esa spektaklning g'oyaviy-badiiy yaxlitligining shakllanishida dramatik konflikt erishgan ahamiyatiga asoslangan. Dramatik konflikt tabiatini haqqoniy va teran izohlash ahamiyati bugungi kunda g'oyat o'sdi. Zamonaviy voqelikning ijtimoiy va ruhiy konfliktlari sezilarli darajada murakkablashdi. Mavjud konfliktlarni ko'p qirraligini endilikda asar syujetidagi raqiblarning to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuvidek tasavvur etish bir yoqlama, shartli talqinlarga olib keladi.

A.Gelmanning «ishlab chiqarish» dramasi sifatida e'tirof etilgan «Protoqol odnogo zasedaniya» («Bir kengash bayonnomasi») asarini tahlil qilish birmuncha namunali misol. Potapov brigadasi va qurilish boshlig'i Batarqev o'rtasidagi to'qnashuvni pyesaning asosiy konflikti sifatida ta'riflash muallif tomonidan oldinga surilgan muammolarning barcha murakkabligini yo'qqa chiqarish idir. Bundan aniq xulosa qilsa bo'ladi-ki, dramaturgiya rivojidadagi yangi bosqichni belgilab beruvchi tamoyillar dramaturglar, ularning izidan sahna arboblari dramatik konflikt tushunchasining o'ziga va zamonaviy pyesalarda konflikt va syujetning, konflikt va harakatning uviy o'zaro bog'liqligini chuqur o'zlashtirishi va anglab yetishi bilan harakterlanadi. Bugungi kunda dramatik konflikt barcha davrlarga va hayotning barcha voqealariga yaroqli «harakatga keltiruvchi kuch» shunchaki bir o't oldiruvchi moslama emas, balki harakatdagi aniq-tarixiy ziddiyatlar surati va siyrati, shuningdeqrejessyor konqepqiyasiga, aktyorlik ijrosi uslubiga ta'sir etuvchi «dramaning joni» sifatida haraladi.

Konfliktni bunday fahmlab, badiiy ifodlanishi 1970-yillar va 80-yillar boshlari o'zbek dramaturgiyasida yutuqlarga olib kelgani singari zamonaviy o'zbek teatrlarining eng sara spektakllarida dramatik harakatni yaxlit ifodalashga imkon yaratdi. Ko'pchilik misollar shuni tasdiqdaydi-ki, konflikt tabiatini chuqur anglagan Rejissyorning zamonaviy spektakllari haqiqiy muvaffaqiyatga erishgan. Hamza nomidagi akademik drama teatrning O'.Umarbekovning «Qiyomat harz», «Shoshma quyosh», M.Boboyevning

«Toshkentdan kelgan mehmon» pyesasi asosidagi «Gurung», S.Ahmad asosidagi «Kelinlar qo'zg'oloni» singari postanovkalarida rejessiyorlar syujet qarama-qarshiliklarini va dramatik konflikt ziddiyatlarining sahna haraktlarini ichki va tashqi dialektikasini obrazli ifodalanishiga yaqinlashadilar. Spektaklning ifodaviy surati bu yerda dramaturgning, keyinchalik esa spektakl korlarining dramatik konfliktidagi voqelik qarama-qarshiliklarini umumiylik va individuallik obyektivlik va subyektivlik birligi sifatida haqqoniy ifodalashi evaziga yaratiladi.

O'zbek dramaturglari oxirgi yillarda voqelikning ziddiyatli ko'rinishlarini shunchaki aks ettirishga emas, aksincha, ular mohiyatini anglashga, dramatismi ochishga oxir-oqibatda esa, tipik harakterlarda g'oyani umumlashtirishga intiladilar.

Ichki harakat dinamikasi rivoji drama kompozitsiyasini tashkil etishning muhim shartlaridan biriga aylanadi. Bunda konflikt tomonlar o‘zining azaliy qarama-qarshiligini saqlagan holda g‘oyalarda ifodalanadi, shuningdeq u yolg‘iz birharakter ichki ziddiyatlarida gavdalanishi mumkin. Bunday yondashish Rejissyorlarni drama qahramonining ichki dunyosi ifodasining shartli usulda aks ettirishiga olib keldi. Sahnada qahramon ichki «men»ining kadr orti ovozi shunchaki yangramaydi, balki uning ko‘z ilg‘aydigan timsoli harakatlanadi. Tadqiqot uchun olingan davrda, dramatik konflikt tushunchasining o‘zida bu teranlashish jarayoni I.Sulton, Uyg‘un, A.Ibrahimov, O‘.Umarbekov, M.Boboyev va SH.Boshbekov ida ko‘rinadi.

Dramatik konflikt hayot ziddiyatlarini aynan aksi emas, lekin ular tomonidan «sug‘orilgan» va shu jihatdan ijtimoiy-tarixiy ziddiyatlarni ifodasi hisoblanadi. Diologik tuzilishi bilan bir qatorda dramatik konflikt dramaning o‘zini hamda dramatik harakatning o‘ziga xos hususiyatini belgilaydi. Ziddiyatsiz drama yashay olmaydi: nazariyotchilarning ko‘pchiligi izohlashicha dramatik ziddiyat dramaning joni hisoblanadi. Dramada konflikt vaziyatlarni, qahramonlarning o‘zaro munosabatlarini o‘zgarishiga olib keladi, biroq u dramaning «harakatga keltiruvchi kuch»i degani emas. O‘zgarishlarga olib kelgancha, konfliktning o‘zi harakatlarda namoyon bo‘ladi va bu harakatlanish uning mantig‘ini hayotning dramatik konsepsiyasida namoyon etadi.

«U(konflikt)ning teranligi darajasi mazmundorlik jihatdan davrning ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlari, uning haqiqiy «harakatlantiruvchi kuchlari» bilan aloqadorlik aniqlanadi. Badiiy nuqtai nazardan maummo ichki uyg‘unlikda, dramatik harakatning turli qatlamlari ifodasining «bevosita» va «bilvosita» mutanosibligida, uning «ko‘lami» yaxlitligida tashkil topadi-yozadi A.Karyagin va yana, «bu «harakat qatlamlari» o‘zida shartli ravishda bo‘linadigan birlikni namoyish etadi. Dramada hamma narsa konfliktga intilgan va nima-ki undan tashharida bo‘lsa, ortiqcha», -deya ta’kidlaydi. Bu ma’noda yuqorida ta’kidlanganidek konflikt uni «sug‘organ» voqelik qarama-qarshiliklarining aniq-tarixiy, dramatik badiiy tizimi hisoblanadi. Lekin ko‘pincha konfliktga bir yoqlama, bir ma’noli yondoshiladi, shuning uchun ham konfliktning ahamiyati, uning voqelik bilan bog‘liqligi masalasi yechilmay qoladi. Bu borada u tashqi syujet voqealaridagi qarama-qarshiliklari, personajlarning g‘ayrioddiy to‘qnashuvlaridek qabo‘l etiladi, «turlarga» bo‘linadi va personajlarning joylashuviga ko‘ra yuzani belgilaydi. Bu dramaturgiyani tahlil etishda notarixiylikka olib keladi, negaki, konfliktning tashqi belgilari uning tashqi syujet qatlamiga aloqador va personajlarni harakatlarini belgilaydi.

O‘zbek dramaturgiyasi va teatri jamiyatning ijtimoiy qatlamlari orasidagi tafovut, mehnat va mehnat munosabatlarining yangi shakllarining ayni uning eskirgan shakllari bilan kurash, kishilarning moddiy va ma’naviy talablari ortishi va jamiyat rivojida mavjud ulkan shart-sharoitlardan yetarli darajada foydalanmaslik

kabilardan kelib chiquvchi hayotiy ziddiyatlarning teran manbalariga murojaat qilganlar va murojaatni davom ettirmoqdalar. Hayotiy ziddiyatlarni ifodalash va o‘zlashtirishning badiiy usuli sifatida yuzaga kelgan, o‘zida dramatik kurashning dolzarb pallasini mujassamlashtiruvchi o‘zbek dramaturgiyasi dunyoni uning haqiqiy rivojida ko‘rib chiqadi, uning konfliktliligini ijtimoiy qayta barpo etish davrlarida tahlil etadi.

Teatr o‘z mahsuli bilan tomoshabinlarning orzu-umidlarini amalga oshirishga ko‘maklashishdek, zavqlantirishdek muqaddas xizmatni ham o‘z zimmasiga olgan ekan, uning mahsuli zamondoshlarining badiiy didiga nisbatan yuksakroq bo‘lishi talab qilinadi. Chunki tomoshabinlarning ijodkorlik tuyg‘usi to‘g‘ri tarbiyalangan bo‘lishi va shundaylar bugun spektakl ko‘rayotgan bo‘lishi mumkinligini inobatga olishlari zaruratga aylanadi. Tassavvuri va tafakkuri adabiyot, teatr va kinoning yuksak badiiy namunalari tarbiyalangan zamonaviy tomoshabin jonli muloqotda ishtirok etish uchun spektaklga tashrif buyurgan ekan, u doim “xaq” bo‘lishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Bu fikr teatr faqat ziyolilarning sevimli maskani degani emas, balki badiiy didi tarbiyalanganlar yoki tarbiyalanishini xohlaganlar uchun jonli muloqot sodir bo‘ladigan muqaddas dargoh. Ular sahnaviy talqin qilingan xarakterlar qilmishidan tegishli xulosa chiqarib, o‘zlarini qayta tarbiyalashga bel bog‘lagan, ma’naviy boyish uchun tashrif buyurgan teatr san’ati shinavandalari. Shuningdek, teatr tanlagan mavzu dolzarbmi, asar g‘oyasining rejissyorlik talqini to‘g‘rimi, aktyorlar o‘zlariga topshirilgan personajlar xarakterini obraz darajasida yaratishga qodirmi? — degan savollariga javob topish uchun kelgan muxlislar.

Shunday ekan teatr o‘z spektakli g‘oyasini, taxmin qilingan oliy maqsadini zamondosh saviyasi darajasidan yuksakroq badiiy shaklda talqin qilishga qodir emas ekan, buni avvalo tomoshabinga hurmatsizlik deb baholash lozim. Davlat har bir spektaklni sahnalashtirish uchun ma’lum miqdorda mablag‘ ajratar ekan, u avvalo tomoshabinning ruhiy, ahloqiy va ma’naviy boyishi uchun xizmat qilishi ham qarz, ham farz.

Tomoshabinni yetaklash o‘rniga, uning yetagida yuradigan teatrlarning repertuarini nazoratdan o‘tkazib, ijodiy jamoalarni tomoshabinni hurmat qilishga da’vat qilish ham zaruratga aylandi. Chunki, teatrning repertuari — uning jamoasi iqtidori darajasi ko‘rsatkichidir. Bu muqaddas dargohda har bir ijodkorning va alohida san’at turlari ustalarining o‘z o‘rni bor. Ular hamkorligidagi sintezlashgan ijod mahsuli bo‘lgan spektakl — san’at turlari ustalarining o‘zaro hurmati va bir birini to‘ldirishi evaziga tug‘iladi. Teatrning o‘ziga xos murakkab san’at turi ekanligi, uning sintezlashgan jamoaviy ijod maskani ekanligidadir.

Musiqadagi har bir falshni sezish oson, lekin spektakllardagi o‘nlab nosozlikni hamma ham anglayvermaydi. Hayotdagi uyg‘unlikdan, musiqadagi

garmoniyadan xabardor tomoshabinlar spektaklni ham badiiy yaxlit shaklda ko'rishni istaydi. Ular shuning uchun spektakl haqidagi o'z fikr-mulohazalarini beg'araz bildirib boradilar. Bu zamonaviy tomoshabin va u teatr bilan hamkorlikda ijod qilishni hojlaydi. Bundaylarning ijodiy tuyg'ularidan to'g'ri foydalanish uchun teatrlar ham zamonaviy ijod uslubiga o'tishi lozim.

Zamonamizga kelib ish faoliyatida kompyuterdan foydalanadiganlar, kasbi-kori uchun internetdan yangilik qidirib, yakka tartibda, faqat texnika bilan muloqotda bo'ladiganlar uchun teatr yoki stadiona borib jonli muloqotga kirishish zaruratga aylandi.

Shuning uchun jahonning ilg'or teatrlari ish uslubida jonli muloqotga muhtoj, ijodkorlik tuyg'usi to'g'ri tarbiyalangan tomoshabinlarning fikr-mulohazalaridan, takliflaridan unumli foydalanish yetakchilik qilmoqda. Zamonaviy teatr o'z muxlislari, ya'ni jonli muloqotga intilayotgan, lekin boshqa kasb egalari bo'lgan ijodkorlar bilan internet orqali muntazam aloqa o'rnatmoqda. Bu aloqa teatrlarning internetdagi saytlari orqali amalga oshiriladi. Ilg'or teatrlar o'z saytida qaysi asarni sahnalashtirishni rejalashtirayotganligini e'lon qiladi. Uni kim sahnalashtiradi, kimlar ijro qiladi, dekoratsiya va musiqiy yechim, ilgari surilayotgan g'oya to'g'risida qisqacha annotatsiya — izoh beriladi.

Internetdagi ijodiy muhokama jarayonini teatrning sahnalashtiruvchi jamoasi o'rganib, o'z fikrini bildirganlarga minnatdorchilik e'lon qilib, ular taklifidan so'ng qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligi haqida, yana qayta o'z muxlislarga xabar jo'natadi. Ijodiy bahs — munozara yanada qizg'in tus oladi. Internet orqali munozaraga kirishgan ijodkor — muxlislar bu masalaga oydinlik kiritish uchun o'zlarining do'stlarini ham bu jarayonga jalb qilganini ma'lum qilishadi. Teatr jamoasi esa bu mavzu muhokamasida qatnashganlar soniga qarab, hali sahnalashtirilmagan spektaklga qancha tomoshabin tushishi mumkinligini aniqlab oladi. Sarf qilinadigan harajatlar qoplanishi aniq bo'lgan daqiqadan boshlab, spektaklning repetitsiyasiga kirishishadi. Qizig'i shundaki, repetitsiya jarayonida paydo bo'lgan muammolar to'g'risida yana o'z muxlislarga murojat qiladilar. Ijodiy hamkorlik va uni amaliyotdagi ko'rinishi natijasi teatr jamoasini qay darajada qiziqтира, internet orqali muloqotdagilar muhokamasi ham shunchalik qizg'in tus oladi. Teatr tomoshadan bir oy avval o'z muxlislarga — “siz qachon kela olasiz, sizga nechta chipta kerak?” degan savol bilan murojaat qiladi. Natija kutilganidan ortiq bo'ladi. Spektaklning tug'ilish jarayonida faol ishtirok etgan muxlislar birinchilardan bo'lib teatrning hisob raqamiga pul o'tkazib, chiptalarni harid qilib oladilar. Spektakl tug'ilmasdan, bir oy oldinga chiptalar sotilib bo'ladi. Biz uchun ertaknoma bu yangilikka misol qilib “Sog'lom avlod uchun” jurnalining 2013 yilning dekabr sonida “Teatr va tomoshabin ijrosidagi tomosha” nomli maqola e'lon qilgandik. Maqolada Londondagi “Polka” teatrining yuqorida bayon qilingan

zamonaviy ish uslubi yoritilgan edi. Bu teatrning ish uslubidagi yana bir yangilik, jamoaning har bir a'zosi biron maktabda badiiy ijod bo'yicha mas'ul bo'lib, bolalarning rassomlikka, musiqaga, adabiyotga va teatrga layoqatini, maxsus vazifalar berib aniqlaydi. Maktabdagi ko'riklar, badiiy kechalarda ishtirok etgan bolalarning iqtidorini baholash jarayonida teatrning rassomi, kompozitori va rejissyori qatnashadi. Shunday qilib, teatr internet orqali hamkorlikda ijod qiladiganlarni atrofiga jamlasa, maktabdagi bolalarni jonli muloqot va maxsus darslar orqali teatr san'atining yosh muxlislariga aylantiradi.

Tomoshabinning qalbini va ongini zabt etish uchun zamonaviy teatrlar yangidan-yangi uslublarni kashf qilmoqda. Shu o'rinda Stanislavskiyning "qotib qolgan qoliplar, an'analar ijod qilishdan to'xtaganlar uchun juda qulay niqobdir", degan fikrini eslash o'rinli bo'ladi. Chunki, qobiliyatsizlar shart-sharoitga moslashadilar, ijodkorlar esa yangilik yaratishga intiladilar. Bu intilish jarayonida ijodkorlar avvalo shart-sharoitga moslashgan hunarmandlarning qattiq qarshiligiga uchraydi. Bunday qarshilikni yengish uchun ilg'or teatrlarning yangi uslublaridan xabardor bo'lish zamon talabiga aylandi.

Zamon talabini oldindan his qilgan yurtboshimiz internet tarmog'idan teatrlar foydalanishi uchun o'n yil avval sharoit yaratib berdi. So'ngra undan har kim o'z kasbi-kori uchun to'g'ri va unumli foydalansin deb ingliz tilini o'rganish uchun barcha qulayliklar yaratildi. Dunyoqarashi yangilanayotgan katta avlod ortidan mustaqillik farzandlari ulg'ayib, safimizga qo'shilmoqda. Ular o'z sohalari uchun kerakli axborot va xabarni internetdan olib, yangi ma'lumotlarga ega bo'lmoqda. Shu o'rinda internetdan olingan xabar, axborot yoki ma'lumotni "bilim" yoki "ilm" deb yangilashayotganlar borligini eslatish joiz.

Internetdan olingan ma'lumotlarni jamlab, tahlil qilib, o'z kasbiga ijodiy yondoshish ko'nikmasini shakllantirayotgan yoshlarni ilmga intilayotganlar deyish mumkin. Chunki ular, yangilik yaratishga intilayotgan, izlanishdagi yosh ijodkorlar bo'lib, so'nggi ma'lumotlardan to'g'ri foydalana oladigan zamondoshlarimizdir. Ular respublikamizdagi teatrlarning saytlariga kirib yangi xabarlar topolmayotganliklari achinarli xol. Ayniqsa, yosh ijodkorlar sahnalashtirilishi rejalashtirilgan asarlar haqida bilishni va teatrga ma'lum darajada tayyorlanib borishni xohlaydilar. So'nggi 4-5 yil ichida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tugatgan yoshlar hamda tahsil olayotgan talabalar — san'at jurnalistlari, teatrshunoslar, dramaturglar va rejissyorlar internetdan o'z sohalari uchun yangilik qidiradiganlar, loqal poytaxt teatrlari o'z saytlarida joriy yil uchun rejalashtirgan asarlar bilan tanishib, jamoaviy ko'rikka tayyorlanib borishni orzu qiladilar. Afsuski, sahnalashtirilgan asarning muhokamasida hatto, mutaxassislar pyesani o'qimay kelganini va ko'rganini tahlil qilishi mumkinligini ochiq aytadigan bo'lishdi. Oldindan tayyorgarlik ko'rib borishning iloji yo'q, chunki teatr saytiga

yillik reja kiritilmagan, asarni topish qiyin, uni rejissyor o'zgartirish uchun olib ketgan, oxirgi varianti hali tayyor emas, lekin u jamoatchilik ko'rigi va muhokamasiga havola qilingan.

Aktyorlik zamonamizning ulug' kasbiga aylanib, ular teatrdan bo'sh paytida — dublyaj, kino, serial, klip hatto reklamada band bo'lgani uchun “ishxonasi mayda-chuyda” ishlariga aralashmaydi. Bundaylarga teatr qanchalik qotib qolgan “an'analarga” sodiq qolsa, shunchalik qulay. Chunki uni asar muhokamasida muntazam ishtirok etishga vaqti yo'q. Ortiqcha vaqti bo'lsa, to'yga bormasa bo'lmaydi, tirikchilik...

Zamon esa ijodkorlardan yangilik kutuyapti, yangilik yaratish esa oson ish emas. Shuning uchun ilg'or teatrlar internet orqali barcha teatr muxlislarini hamkorlikda ijod qilishga chorlamoqda. Bu zamon talabi. Teatr yangilikka, ziyolilarning jonli muloqotiga, yangi fikriga muhtoj. Ijodkorlik tuyg'usi to'g'ri tarbiyalangan zamondoshlarimiz — kino, televizor, disk, klip, internetdan topilmagan jonli va ijodiy muloqotni faqat teatrdan topishi mumkinligini anglab yetdi. Bu ehtiyojni his qilgan jahonning ilg'or teatrlari ularni o'zlarining ijodiy hamkoriga aylantirmoqda. Demak teatr va tomoshabin hamkorligini zamon talabi darajasida yo'lga qo'yish uchun:

- sayti ishlamayotgan teatrlarni aniqlash va tegishli chora ko'rish;
- O'zbekiston yoshlar teatrining bu yo'nalishdagi tajribasini o'rganib, yanada takomillashtirish;
- teatrlarning badiiy kengashi “Nizomi”ni qayta ko'rib chiqib, yangi uslubda ishlash va mahalliychilik unsurlariga qarshi kurashadigan bandlar kiritish;
- Nizomda, teatrlar keyingi yil rejasini, ya'ni sahnalashtirilishi taxmin qilinayotgan asarlar matnini o'z saytiga kiritish shart, deb belgilab qo'yish;
- muhokama monitoringini olib boradigan va o'zgarishlardan muxlislarni internet orqali xabardor qiladigan ijodkorlarning javobgarligini belgilash;
- televideniya “teatr.uz.” portalidagi yangiliklardan ommani xabardor qiladigan maxsus ko'rsatuv tashkil qilish;
- portalda ijodiy tashkilotlarning, ya'ni teatrning mahsulotini takomillashtiradigan soha turlari bilan hamkorlik darajasini yoritib borish (rassomlar, kompozitorlar, baletmeysterlar, dizaynerlar, adabiyotchilar, jurnalistlar hamkorligi);
- faol muxlislarni teatr san'ati rivojiga qo'shgan hissasini e'tirof etish;
- namunali darajaga ko'tarilgan “teatr va tomoshabin” hamkorligini rag'batlantirish uslubi va shaklini tasdiqlash, kabilarni tizimli tartibga keltirish zarur.

Bu tadbirlar nima beradi? Avvalo teatrlarni “an'analardan” — shtampga aylangan qoliplardan chiqarib, zamon talablari darajasida ishlashga o'rgatadi. Dramaturgiya va aktyorlar o'rtasidagi ijodiy bo'g'in bo'lgan rejissura saviyasini

nazoartga oladi va saralaydi. Teatrni tomoshabin oldidagi javobgarligini oshiradi. Davlat mablag‘ini samarasiz sarflashning olidini oladi. Aktyorlarning hamjihatligini oshiradi. Dramaturglar saviyasini ko‘taradi. Asarning teatr talqinini oldindan muhokama qilib, yangi badiiy shakl topishga ko‘maklashadi. Talqin tahliliga mutaxassislarni, teatr ijodkorlarini va yosh muxlislarni o‘rgatadi. Yoshlarni internetning keng imkoniyatidan to‘g‘ri foydalanishga da‘vat qiladi. Badiiy yaxlit spektakllar namunasi paydo bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, eng muhimi — tomoshabinni teatrga oldindan tayyorlanib borish ko‘nikmasini shakllantiradi. Ma‘naviyat, ma‘rifat va ta‘lim muassasalarining teatr hamda tomoshabinlar oldidagi mas‘uliyatini oshiradi. Yoshlarning ijodkorlik tuyg‘usini to‘g‘ri tarbiyalab, yaratuvchanlik kayfiyati bilan yashash ko‘nikmasini shakllantiradi. Davlat chiqargan Farmon va Qarorlar ijrosini ta‘minlaydi hamda o‘zbek sahna san‘atini jahonning ilg‘or teatrlari darajasiga ko‘taradi.

Nazorat savollari

1. Oxirgi marta qachon teatrga borgansiz?
2. Tomoshabinlik darajangizni hech aniqlaganmisiz?
3. Teatrni tomoshabin oldidagi mas‘uliyatini izohlang.
4. Tomoshabinni teatr oldidagi burchi bormi?
5. Internetdagi teatr xabarlarini muntazam kuzatib borasizmi?
6. “Polka” teatrining “Alla” spektaklini izohlang .
7. Ertangi teatr va tomoshabinni qanday tasavvur qilasiz?

2-Mavzu: Rejissuradagi to‘g‘ri tahlilning sahnaviy talqindagi badiiy ahamiyati (4 soat)

Reja:

- 2.1. Rejissyorlikda to‘g‘ri tahlilga zamonaviy yondashuv.
- 2.2. Rejissyorlik talqinini namoyon etishda muallif uslubini o‘rganish.
- 2.3. Mavzular orasidagi eng dolzarbiga urg‘u berish uslubi. To‘g‘ri talqin tomoshabin uchun g‘oyaviy da‘vat sifatida.

Tayanch iboralar: dramaturgiya, tendensiya, pyesa, tomosha teatri, spektakl, teatr jamoasi, badiiy asar da‘vati, personaj xarakteri, ijodkorlik tuyg‘usi.

2.1. Rejissyorlikda to‘g‘ri tahlilga zamonaviy yondashuv.

Rejissyor o‘z talqinini aniqlash uchun tahlilini asarning janrini o‘rganishdan boshlasa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Muallifning hayotiy haqiqatga munosabati aniq bo‘lgach, uni ifodalashga mos aktyorlar tanlashga kirishadi va o‘ziga xos his bilan badiiy shaklga solishga harakat qiladi. Yozuvchining tasvirlanayotgan hayotiy haqiqatga badiiy munosabati pyesa janrini belgilaydi. Ba‘zan dramaturglar ta’sirlangan voqealariga o‘z munosabatini belgilay olmay qoladi va borini yozib qo‘yaqoladi. Janrni to‘g‘ri aniqlash bo‘lg‘usi spektaklning mazmuni, g‘oyasini va muallifning o‘ziga xos uslubini anglash uchun vositadir.

Janr fransuzcha so‘z bo‘lib — “tur”, “xil” ma’nosini anglatib, asarning yoki tomoshaning tragediya, drama, komediya kabi turlarga bo‘linishidir.

Aristotel “Poetika” asarini yozgan paytda “janr” degan atama ishlatilmagan edi. Tragediyaning barcha tomosha san’ati turlaridan ustun ekanligini asoslash uchun, uni komediya, drama, mim, pantomim, raqs, qo‘shiq va qo‘g‘irchoq o‘yini kabi yo‘nalishlar bilan qiyoslaydi. Natijada, barchasi sodir bo‘lgan voqeaga bildirilgan munosabat tufayli, ular o‘ziga xos turlarga mos ifoda vositalariga ega ekanligini aniqlaydi. Tragediya, drama va komediyaga ajragan yirik turlarga quyidagicha nuqtai nazar umumiy munosabat ekanligini ilk bor asoslaydi. Tragediya qahramoni mendan har tomonlama yuksak, ijtimoiy kelib chiqishida, maqsadida va harakatida. Dramaning qahramoni men kabi — uning fikrlari bilan bahslashish mumkin. Komediyaning barcha personajlari menga nisbatan tuban, shuning uchun ular harakati ustidan kula olaman.

Tragediya — dramatik asar turlaridan biri bo‘lib, unda ilojisiz vaziyat, halok etuvchi og‘ir va teng bo‘lmagan kurash negizida bosh qahramonning xarakteri hamda halokati sababi ochib beriladi. Tragediya dramaning — dardli kurash ifodalangan harakatning eng qadimgi turidir. U qadimgi Gretsiyada vujudga kelgan va “Echki yig‘isi” nomi bilan xudo Dionis sharafiga o‘tkazilgan bayramdagi xalq tomoshasidan olingan. Dionis sharafiga qurbonlik uchun echki olib kelishar ekan. Bu marosim raqs tushish, Dionisning iztiroblari haqida xorning rivoyat aytishi va qurbonlikka atalgan echking tuyg‘ulari haqida xorning qayg‘uli qo‘shiq aytishi bilan yakunlangan.

Keyinchalik tragediya avvalgi xususiyatini o‘zgartirib, insonlar iztirobi haqidagi maxsus teatr tomoshasiga aylangan. Grek dramaturglari Esxil, Sofokl, Yevripid tragediyalari inson iztiroblarini badiiy tasvirlay olgani uchun mashhurdir. Antik teatr kishining iztiroblari tasviri bilan tomoshabinlar qalbiga dahshat solar va go‘yo kishining takdiri hamda qilmishini boshqarib turuvchi g‘ayritabiiy kuchga qarshi kurashish befoyda degan tushunchani uqtirardi. XVI asrning ikkinchi yarmida va XVII asr boshlarida yashab ijod etgan buyuk ingliz dramaturgi V. Shekspir tragediyalarining bosh qahramonlari jamiyatdagi mavjud kuchli qarama-

qarshiliklarni yorqin badiiy shaklda ochib tashlagan. Shuning uchun ham uning tragediyalari butun dunyoda shuhrat topdi.

A.S.Pushkin ham tragediya janridan foydalanib o‘zining o‘lmas kichik tragediyalari — “Tosh mehmon”, “Motsart va Salyeri”, “Qizg‘anchiq ritsar” va “Boris Godunov” tragediyasini yaratdi.

Keyingi davr dramaturgiyasida tragediya o‘z mohiyati bilan o‘tmishdagilardan tamomila boshqacha bo‘lib, unda hayot haqiqati va optimistik mazmun o‘z ifodasini yorqinroq topadi. Bunday tragediyadagi bosh qahramon xalq ishi uchun kurashuvchi, lozim bo‘lsa, buning uchun ongli ravishda o‘zini halok qiluvchi qahramondir. Shunday qilib, tragediya qahramonining halokati, uning ma’naviy tantanasiga, g‘alabasiga aylanadi. O‘zbek dramaturgiyasida ham tragediya janrida ijod namunalari bor — Fitratning “Abul Fayzxon”, Hamzaning “Ishq qurbonlari”, Turob To‘laning “Nodirabegim”, Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” nomli tarixiy-fojiviy pyesalari buning yorqin ifodasidir.

Komediya yunonchada “quvnoq tomosha”, kulguli qo‘shiq ma’nosini anglatadi. Unda hayotdagi kulgili hodisalar tasvir etiladi, ijtimoiy va oilaviy mojarolar, kishilar xarakteridagi ba’zi bir qusurli xususiyatlar ochib tashlanadi. Komediya dramatik asarning bir turi sifatida quvnoq xalq tomoshalari zaminida vujudga kelgan. Qadimgi greklar sharob, hosildorlik va shodlik ma’budi Dionis sharafiga atab, karnavallar uyushtirgan. Unda qo‘shiq aytganlar, raqsga tushganlar, mim va pantomimlarda eskirgan formalar ustidan yangi g‘oya g‘alabasini kulguli aks ettirganlar. Qonuniy taraqqiyot qapshisida umri tugagan to‘siqlarni komediyalarda namoyon qilishgan. Chunonchi Hamzaniig “Maysaraning ishi” komediyasida o‘zini pok, begunoh qilib ko‘rsatgan qozi, mufti va zodagonlarning axloq va odobi satira orqali ko‘rsatilib, ularning maishiy buzucq niyatlari zamiridagi ziddiyat ochib tashlanadi. Zotan, komediyaning mohiyati, V.G.Belinskiy aytganidek hayot hodisalari bilan hayot mohiyati va uning ahamiyati o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir.

XX asr dramaturgiyasi komediyaning yangi turini vujudga keltirdi. Milliy komediyalarda kishilar o‘rtasida va turmushida saqlanib qolgan eskilik sarqitlari kulgi bilan fosh etiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning “Shoxi so‘zana” komediyasida yoshlarning shiddatli xarakteri, yangi yerlar ochish va paxtadan mo‘l hosil olish uchun olib borgan kurashidagi kamchilik va illatlar yoritiladi. Komediya o‘z navbatida tasvirlanayotgan hayotiy haqiqatga muallifning munosabati va uning g‘oyaviy yo‘nalish turlariga qarab satira, grotesk, buffonadaga ajraladi.

Yumor — lotinchada “namlik” ma’nosini anglatadi. Yumoristik asarda turmushdagi va ayrim kishilardagi ba’zi bir kamchiliklar yengil tanqid ostiga olinadi. Bu asarda muallif tanqid qilinayotgan obyektning yo‘q bo‘lib ketishini istamaydi. Yengil kulgu — yumor orqali, unga hatto achinadi va undagi

kamchiliklarning tuzalishini istaydi. Shunisi bilan yumor satiradan farq qiladi. Yuksak saviyadagi yumor baʼzan achchiq kinoyaga, N.V.Gogol soʻzi bilan aytganda, “koʻz yoshi aralash kulgi”ga aylanib ketadi. Uning “Revizor” asaridagi personajlar, satirik tarzda, nafrat va gʻazab bilan tasvirlangan. Shahar hokimi — Skvoznik-Dmuxanovski obraz, uning amaldorlaridagi shuhratparastlik, poraxoʻrlik, xudbinlik qaygʻuli satirik yumor bilan tasvirlangan. Said Ahmadning “Kelinlar qoʻzgʻoloni” komediyasi ham yumoristik dramaturgiyaning yorqin namunasi boʻla oladi. Yuqorida keltirilgan dramaturgiya turlari baʼzi elementlarini oʻzida uygʻunlashtirgan va ularning oraligʻida turgan janr — dramadir.

Drama — yunonchada “harakat qilmoq” maʼnosini anglatadi. Dramatik asarlarda murakkab va jiddiy konfliktlar asar ishtirokchilarining qizgʻin kurashi jarayonida tasvirlanadi. Unda personajlar ijobiy va salbiy sifatlarga ajraladi. Bosh qahramon ilgari surayotgan gʻoya xalq orasida aforizm darajasiga koʻtarilgan fikrlarda izohlangan. Masalan, Hamzaning “Boy ila hizmatchi”, yoki Gorkiyning “Tubanlikda” dramalarida ijobiy va salbiy qahramonlarning shiddatli kurashi yorqin aks ettirilgan. Tragediya va komediyalardagidek drama janri ham oʻz navbatida ifoda etilayotgan hayotiy haqiqatning mazmuniga, maʼnosiga, muallif maqsadiga qarab bir necha turga boʻlinadi. Ular — siyosiy-ijtimoiy, lirik, maishiy, tarixiy, psixologik, hujjatli dramalardir.

Lekin rejissyor op talqinida pyesalarning bunday uch asosiy janrga boʻlinishiga baʼzan oʻzgartirish kiritadi, bunga “Gamlet”ni komediya, “Chayka”ni drama janrida sahnalashtirishi misol boʻla oladi. Masalan, A.N.Ostrovskiy oʻzining koʻpgina pyesalarini “komediya” deb nomlaydi. Uning pyesalariga sofdillik va soddalik yarashadi, ammo “Quturgan pullar” asarini “psixologik drama” janrida talqin qilish mumkin.

Hozirgi zamon rejissyorlari hayotning aynan oʻzini ifodalash jarayonida yuqoridagi klassik uch janr boʻlinishiga boʻysunmaydilar. Chunki, ularning spektakllarida uchchala janrning elementlari ishtirok etadi. Biroq bu degan soʻz, tomosha janrsiz, badiiy boʻyoqsiz boʻlishi mumkin degani emas. Bunday hollarda spektaklda qaysi janr boʻyoqlari asosiy oʻrinni egallashi va tomosha gʻoyasini ochishda faol qatnashsa, shu janrga oid badiiy shakl yaratiladi.

Spektaklning qimmatini faqat uning gʻoyasi va mavzusi dolzarbligi bilan emas, balki uning qahramonlarini ilgʻor va tipik xarakterlarda, zamon bilan hamnafaslikda namoyon boʻlishi va rivojlanishini koʻrsata olishi bilan belgilanadi.

Rejissyor pyesani tahlil qilar ekan, muallifning uslubini, asar janrini, kompozitsion tuzilishini, unda xatti-harakat bajarayotgan qahramonlar taqdirini, ularning tilini va xarakterini puxta oʻrganishi zarur. Pyesaning badiiy xususiyatlarini oʻrganib, dramaturg niyatini tomoshabinga maʼnoli va badiiy ifodali tarzda yetkazish rejissyorning asosiy maqsadi boʻlishi lozim.

2.2. Rejissyorlik talqinini namoyon etishda muallif uslubini o‘rganish

Asarning badiiy xususiyatini, janrini aniqlagach, albatta, muallifning uslubini ham o‘rganish lozim. Muallifning uslubini aniqlash — personajlar xarakterlari o‘ziga xosligini va faqat asarga xos bo‘yoqlarni aniqlashdir. Uslub keng ma’noda yozuvchi ijodidagi g‘oyaviy badiiy xususiyatlar birligi, tor ma’noda ifoda usulining badiiy bayonidir. Keng ma’noda uslub tushunchasi — muallifning dunyoqarashi, asarning asosiy ma’nosini tashkil etuvchi voqealar oqimining, syujet va xarakterlar badiiy tasvirini til va boshqa omillarni kamrab oladi. Masalan, Abdulla Qahhor uslubini haqida gapirganda, muallif asarlarining o‘tkir g‘oyaviylik bilan sug‘orilganligi, zamon voqealariga nisbatan hozirjavobliligi, dramaturgiyaga dadillik bilan yangi mavzu va obrazlar olib kirganligi, tilining boyligi hamda so‘zni zargarona qo‘llashi nazarda tutiladi. Bu xususiyatlar ijodkorning o‘ziga xos uslubini ko‘rsatadi.

Dramaturg uslubining o‘ziga xos xususiyatlari ham g‘oyani anglash va ifodalash darajasi, hayotiy voqealarni tasvirlash metodi, davrning shart-sharoitlarini baholash mahorati bilan belgilanadi.

Demak, dramaturgning o‘ziga xos xususiyatlari — hayotga munosabati, voqeani g‘oyaviy-badiiy ifodalash mahorati — uslub deb yuritiladi. Ijdodkor uslubini har doim zamonning g‘oyaviy-badiiy ta’siri ostida vujudga keladi va shakllanadi. Muallifning dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi, g‘oyaviy qiziqishlari, badiiy ifodalash mahorati hammasi uning uslubini belgilaydi. Bular spektaklning mazmunini va o‘ziga xos ifodalangan g‘oya shaklini badiiy ifodalashga yordam beradi.

Jumladan, K.Yashin, A.Qahhor, I.Sulton, SH.Boshbekov, S.Ahmad, E.Xushvaqtov kabi dramaturglar o‘z badiiy uslubini — “dastxati” bilan yaqqol ajralib turadi. Hayotiy materialni tanlash, syujet tuzish, kompozitsiya, janr, til va obrazlarni o‘ziga xos talqin etish har bir dramaturgning badiiy uslubini belgilaydi. Shuning uchun rejissyor muallif uslubini, uning o‘ziga xos xarakterli xususiyatlarini tahliliy aniqlay oladi, olingan pyesani ipidan ignasigacha o‘zlashtirishni zaruratga aylantiradi va bu spektakl rejasini tuzishga asos bo‘ladi.

Rejissyorning spektakl ustida ishlash jarayoni ko‘p pog‘onali, badiiy murakkab ijodiy bosqich bo‘lib, “qayta jonlantirish”, qog‘ozdagi fikrlarni tirik insonlar va badiiy tasviriy vositalar tiliga ko‘chirish mahoratidir. Mukammal pyesa bo‘lg‘usi spektaklning asosi bo‘lib, uning g‘oyaviy-badiiy qimmatini rejissyorning va badiiy jamoa mehnatining muvaffaqiyati garovidir. Shuning uchun rejissyor eng avval sahnalashtirish uchun pyesa tanlashda adashmasligi, o‘zi rahbar bo‘lgan badiiy jamoaning ijodiy kuchini, asarning badiiy imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Ikkinchi tomondan esa, tanlangan mavzu dolzarbligini, g‘oyaviy o‘tkirlikini,

kompozitsion mustahkamligini, tilining ifodaviy va ravonligini, janrining aniqligini, muallif uslubining yorqinligini yaxshi o‘zlashtirishi talab qilinadi.

Rejissura san’atida pyesani o‘ziga moslab yoki butunlay teskari talqin etilish hollari ham mavjud. Shuning uchun rejissyorning talqin qudrati uch bosqichli — jamoani muallif g‘oyasiga ko‘tarish, ijodkorlarni asar g‘oyasi darajasiga olib chiqish yoki barchani “o‘zi” darajasiga olib tushish jarayonidan iborat. Uchinchi ijodiy jamoa uchun fojeadir.

Rejissura san’ati spektaklning umumiy elementlarini birlashtirish mahoratidir. Namunali dramaturgiya o‘z personajlari orqali umumiylikni ochadi, individuallik orqali tipiklikni ko‘rsatadi va inson shaxsini har qanday ma’naviy, jismoniy va ruhiy qullikdan ozod qilishni orzu qiladi. Shuningdek, mukammal rejissyor ham har bir spektaklida “inson” so‘zi mag‘rur jaranglashini istaydi.

Ma’lumki, har qanday bilish uch bosqichli jarayondir. U jonli kuzatishlardan paydo bo‘lgan aniq masalani “sezib”, qabul qilishdan boshlanadi. Keyin e’tiborga olingan masalani “tushunish”, so‘ngra uni umumlashtirish jarayoniga o‘tiladi. Spektakl sahnalashtirmoqchi bo‘lgan rejissyorning birinchi vazifasi aniq masala yuzasidan paydo bo‘lgan taassurotlarini “yig‘ishdir”. Boshqacha aytganda, “Otello”ni sahnalashtirayotgan rejissyor — rashk tuyg‘usini, hozirgi zamon kishilaridagi sof tuyg‘ularni bulg‘ashga o‘chlikni, sevgisini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqish kabi xislatlarni kuzatishi zarur. Shuningdek, tarixiy hujjatlar, esdaliklar, o‘sha davrga taalluqli publitsistik va badiiy adabiyotlar, tasviriy san’at, musiqa, fotografiya materiallari, illyustrativ, ikonografik haykallar, xullas, pyesada tasvirlangan shart-sharoit muhrlangan asoslarni o‘rganishi zarur. Ifodalangan davrdagi kishilarning xulq-atvorlarini, qonun-qoidalarni, didlarini, xarakter va odatlarini, dunyoqarash va madaniyatlarini, ular nimani iste’mol qilishgan va qanday kiyinishgan, ularning yurish-turishlari qanday, yashash uchun joy qurish va jihozlari hamda boshqa zarurat uchun kerak bo‘ladigan narsalarni ham o‘rganilishi talab qilinadi.

Vaxtango aytganidek — aktyor obraz hayotiga tegishli narsalarni xuddi onasini bilgandek, yaxshi bilishi kerak. Rejissyor ham sahnada gavdalantirmoqchi bo‘lgan tomoshani aniq, ravshan tasavvur qilishi zarur.

Xulosa shuki, rejissyor uchun dramaturg tomonidan berilgan muhim voqeaning asosiy mohiyatidan kelib chiqadigan spektaklning g‘oyasini to‘g‘ri aniqlash bosh masaladir. G‘oyaning aniqlanishi bilan muhim bir ish jarayoni nihoyasiga yetadi. Endi rejissyor pyesa muallifi bilan bir huquqqa ega bo‘lgan hamkorlik darajasida, umumiy maqsad va vazifa uchun birgalikda kurashmog‘i, aniqrog‘i yozma asarni jonlantirish kabi muhim ijodiy ishga kirishmog‘i mumkin.

Mavzu, g‘oya, janr, uslub, kompozitsiya, konflikt aniqlangach, tomoshaning qalbi bo‘lgan fabulani, asar g‘oyasini ochish uchun muallif terib olgan va ongli

ravishda qurib chiqqan voqealar oqimini o'rganish va o'zlashtirilishi zaruratga aylanadi.

Badiiy uslubning asosiy shakli sifatida yakka uslub va muallif uslubi ko'proq o'rin egallab bormoqda.

Muallifning har bir asari rejissyor talqiniga bog'liq. Rejissyor ham spektakl muallifi hisoblanadi. Qog'ozdagi so'zlarga jon ato qilgan, unga umr bergan, o'z zakosi bilan jonli sahna asarini ijodiy jamoa bilan yaratgan rejissyor hisoblanadi. Rejissyor va muallif birligi maslakdoshligi katta rol o'ynaydi. Rejissyor dardi dramaturg dardi bilan hamohang bo'lishi kerak. Stanislavskiyning Chexov va Gorkiy bilan yaqinligi, Mannon Uyg'urning Hamza bilan maslakdoshligi, Toshxo'ja Xo'jayevning Oybek, Erkin Vohidov bilan hamkorligi, Bahodir Yo'ldoshevning Said Ahmad bilan, Rustam Hamidovning O'lmas Umarbekov bilan izlanishidan ajoyib sahna asarlari yaratildi. Ba'zi rejissyorlar muallif tanlamaydi, duch kelgan asarni sahnalashtiradi. Bunday rejissyorlar ijodni kasbga almashtirgan, u asardan bu asarga o'zini takrorlaydigan hunarmand rejissyorlardir. Ayrimga voqea qayerda kechadi, qachon kechadi, tarixiymi, zamonaviymi farqi yo'q, o'z uslubi tayyor qolipi bor, sahnalashtiraveradi. Bu o'z navbatida tomoshabin qalbini jiz ettirmaydi, larzaga solmaydi, hafsalasi pir bo'lib teatrni tark etadi. Qars ikki qo'ldan deganiday dramaturg o'ylab topgan mavzu, matn, qog'ozdagi qiyofalar rejissyor sayi-harakati tufayligina jonlanadi, hayotiy haqiqatga aylanadi, tomoshabin larzaga tushadi, ma'naviy kamol topadi. Teatr san'ati- shartli san'at. Sahnaga haqiqiy daraxtni, paxsa devorni olib chiqib bo'lmaydi. Tomoshabin chizilgan jihozlarni, yasama rekvizitlarni tushunadi, hamma gap ijroda, uning ishonarli jonli va hayotiy chiqishida, talqinida. Tomoshabin teatrga nega tushadi? Aktyorning jonli ijrosi, uni yuzma-yuz turib tomosha qilish, har gal yangi holat, yangicha ruh, harorat o'ziga jalb qilaveradi. Qiyofalar turlanishi, voqealar rivoji, ijrochilarning har safar rolga o'zini baxshida qilishi tomoshabinni o'z domiga tortaveradi. Teatrning jozibasini ham shunda. Ba'zilar televideniye paydo bo'lgandan keyin teatr o'ladi deb bashorat qilgan edilar, yo'q teatr o'z jonli mehrigiyosi - ijrosi bilan abadiy san'at ekanligini isbot qildi. Kino va

televideniyeining ravnaqiga qaramay keyingi yillarda tomoshabin teatrga yana oqib kela boshladi.

To'g'ri, teatr san'ati asrlar davomida qutining ichida qolib ketaverdi, yangi texnik imkoniyatlar yaratilmadi. Endi-endi teatr tomoshalari ochiq maydonga chiqa boshladi. Bu esa o'z navbatida rejissyorlarga yangi imkoniyatlar yaratdi. To'rt devorning ichida qolgan teatr san'ati, yangi kino san'atining paydo bo'lishiga olib keldi. Dramaturg va rejissyor teatrdan qila olmagan ijod mahsulini kino san'atida

amalga oshirdi. Kinoda voqealar ko‘lamining kengligi, vaqt cheksizligi ssenarist uchun ham rejissyor uchun ham katta sharoitlarni tug‘dirdi.

Teatrdagi rejissyor bilan dramaturg hamkorligi kino san‘atida rejissyor va ssenariy muallifi hamkorligiga aylandi. Teatrdagi kabi kinoda ham rejissyor film muallifi hisoblanadi. Kinodramaturg o‘ylab topgan voqealarni jonlantiradigan, uni ko‘rimli tomoshaga aylantiradigan shaxs bu kino rejissyordir. Teatr san‘atini sintetik san‘at dedik. Kino ham teatr kabi sintetik san‘at hisoblanadi. Teatrdagi aktyor, rassom, bastakor, chiroqchi, liboschi, pardozi, rekvizitlar tufayli spektakl bunyodga kelsa, kinoda bundan ham murakkabroq ularga qo‘shimcha tasvirchi-operator, assistent, ovoz operatori, montajchi, lablashtiruvchi va boshqa qator texnik xodimlar tufayli film vujudga keladi. Yoz demay, qish demay, kech demay, kunduz demay mashaqqatli mehnat, juda katta ijodiy jamoaning birligi sababli kinofilm dunyoga keladi, tomoshabin yuzini ko‘radi. “Tohir va Zuhra”, “Alisher Navoiy”, “Nasriddinning sarguzashtlari”, “O‘tgan kunlar”, “Mahallada duv-duv gap” kabi mumtoz filmlar mana shunday mashaqqatlar evaziga bunyod etildi. Nabi G‘aniyev, Komil Yormatov, Yo‘ldosh A‘zamov, Malik Qayumov, Shuhrat Abbosov kino san‘atimizning darg‘a rejissyorlari hisoblanadi. Bu rejissyorlar kino san‘atining qonuniyatlari, sir-asrorlarini yaxshi bilganliklari uchun, kinodramaturglar bilan hammaslak bo‘lib ishlaganliklari uchun ana shunday jahonga mashhur filmlar yaratdilar. Necha yillar o‘tsa ham bu filmlarni

qayta-qayta ko‘rging kelaveradi. Kino san‘atining ajoyib xislati ham mana shunda. U lentaga muhrlangan. Tasmada saqlanayapti. Uni takror va takror ko‘ra olamiz. Teatr san‘atining fojiasi shundaki, uni har kuni muhrlab bo‘lmaydi, har kungi jonli ijroni saqlab qololmaymiz. Bir marta muhrlandimi, tasmaga tushirildimi, shu qoladi. Hozirgi elektron texnika taraqqiyotini afsuski o‘tgan asr o‘rtalaridagi buyuk san‘atkorlar ko‘ra olishmadi. Mannon Uyg‘ur, Mariya Kuznetsova, Yetim Bobojonov, Abror Hidotovlarning yuksak darajada yaratgan jonli qiyofa va spektakllari saqlanib qolmadi, ayrim xronikadagi lavhalar, urvoq kadrlargina xotira sifatida qoldi. Teatrdagi mashhur spektakllar ayrim suratlar orqaligina ko‘z oldimizda gavdalanadi, rejissyor va dramaturg hamkorligini tasavvur qilamiz.

Ommaviy axborot vositalarining shakllanishi, elektron texnikaning keskin rivoji teatrga ham, kinoga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Rejissyor va dramaturg hamkorligining yangi qirralari ochildi. Avvallari teatr va kino san‘atida amalga oshmagan mo‘jaz filmlar, kichik novellalar, uzundan- uzoq seriallar, hujjatli ekran asarlari, publitsistik janrlar, film portretlar, kundalik informatsion ko‘rsatuvlar XX asr mo‘jizasi televideniye tufayli dunyoga keldi va rivoj topdi. Televideniye va radio kirmagan xonadon qolmadi.

Rejissyorning badiiy asar ustida ishlashi

Buyuk yozuvchilar buyuk rejissyor bo'ladi, der edi ustozim. Darhaqiqat Shekspir ham, Balzak ham, Lev Tolstoy ham, Abdulla Qodiriy ham buyuk rejissyorlardir. Ularning har bir satri, har bir sahnasi, so'zi zamirida yotgan fikrlar rejissyor uchun katta bir ma'naviy ozuqa, sahnalashtirishning ulkan imkoniyatlarini yaratib beradi, tasavvuringizda, ko'z oldingizda o'z- o'zidan voqealar tizmasi jonlanib namoyon bo'laveradi. Siz uni muallif uslubini, oldiga qo'ygan maqsad, niyatlarini buzmaganda ro'yobga chiqarsangiz bas, shuning o'zi yetadi. To'g'ri, rejissyor ijodkor shaxs sifatida o'zining "men"i, muallifga munosabati, davrga hamohangligi, avval

ochilmagan qirralarni asardan topishi, yangi yondashuvni zamondoshga izhor qilishi, uni larzaga keltirishi lozim. Ammo ko'pincha rejissyorlar o'zini namoyon qilib, "men"i bo'rtib, muallifning fikri-zikri ikkinchi darajali bo'lib qolayotgan hollari uchrab turibdi. Men mumtoz asarlarga har gal yangicha ifoda topib yangi talqinda tomoshabinga havola etilgan spektakllarni ko'rib, hayratga tushganman. "Revizor", "Hamlet", "Otello", "Qutlug' qon", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Qiyomat qarz" shular jumlasidandir. Asarlarni sahnalashtirishda rejissyor yozuvchining biron so'zini o'zgartirmay yangi qatlam fikrlarni topa bilgan. Talqinda gap ko'p. Rejissyor bir asarni har asnoda ko'rishi, o'ziga kerakli durni topib olishi mumkin. Ikkinchi jahon urushida Aleksandr Korneychukning "Front" asari sahnalashtirilgan. Asar qahramonlari, sovet zobitlari va askarlari nemisga qarshi kurashadi. "Sovet"da qo'yilgan bu asar vatanparvarlik ruhida tayyorlanib dushmanga nafrat uyg'otgan. Aynan shu asarni Germaniyada sahnalashtirilib bironta so'zini o'zgartirmasdan ko'rsatishgan. Natijada nemis zobitlari aqlli, idrokli, sovet zobitlari ahmoq, laqma sifatida namoyish qilingan. Farq uslubda, ijro ohangida, talqinda. Demak, asarning qo'yilishida gap ko'p ekan. Rejissyor qanday qo'ysa, tomoshabinga qanday havola qilsa, shunday taassurot qolar ekan. Dramaturg yozadi, muallif ham o'zi. Lekin sahnalashtirilgan asar – spektakl muallifi rejissyordir. Qog'ozdagi muallif dardi bilan sahnada jonlangan rejissyor dardi hamohang bo'lib, uyg'unlashib ketsa, maslak bir joydan chiqsa, asar muvaffaqiyati, uzoq umr ko'rishi shundan bo'ladi.

Bahrom Rahmonovning "Yurak sirlari" dramasi bo'lardi. Taniqli bo'lmagan dramaturg, mashhur bo'lmagan asar, shu asarga jon ato qilgan, uni mashhur qilgan rejissyor Toshxo'ja Xo'jayev bo'ladi. Ajoyib shoir Erkin Vohidov "Oltin devor"ning qoralamasini teatrga olib kelganida, unga ishlov bergan, ko'rimli tomoshaga aylantirgan, hozirga qadar sahnadan tushmaydigan komediyani vujudga keltirgan, shoirni dramaturg qilgan - Toshxo'ja Xo'jayev bo'ladi. Oybekning "Qutlug' qon" asarini

sahnalashtirayotganda, mashq jarayonida zalda o'tirgan Oybek sahnadagi bezak, ijro mahoratini ko'rib, ijod jarayonining ketishiga qarab necha bor rejissyor Toshxo'ja Xo'jayevning yelkasiga qoqib qoyil qolganini, tasannolar aytganining shohidi bo'lganman. Dramaturg Sharof Boshbekovning "Temir xotin" asari yozilganida, qator teatrlar uni sahnalashtirdi. Biri komediya, biri fars qilib ijro etdi. Lekin kulgu tagida ijtimoiy fojia yotganligini rejissyor Olimjon Salimov ilg'adi. Bir kuni Sharof Boshbekov "Mahkam aka, asarimni Farg'onada Olimjon Salimov ko'nglimdagiday sahnalashtiribdi", deb tan oldi. Muallif dardi, rejissyor dardi bir yerdan chiqdi. Qars ikki qo'ldan deganiday, dramaturgning qochirimlarini, kulgu tagida yig'i borligini rejissyor anglay bilgan va uni mohirona ijroda ro'yobga chiqargan.

Pyesa birlamchi, spektakl ikkilamchi hisoblanadi. Atayin sahnaga yozilgan asarlar bor: drama, komediya, tragediya, opera, operetta, musiqali drama va hokazolar. Sahnaga moslashtirilgan (adaptatsiya) asarlar ham bor: roman, qissa, novella insenirovkalari.

Badiiy asar ustida ishlaganda rejissyor birinchi holatda asar mavzusi, g'oyasi, shu kun uchun dolzarbliligi ustida bosh qotirishi, tomoshabinga qanday ma'naviy ozuqa berishi haqida o'ylashi kerak.

Biz bilamiz, barcha badiiy asar - to'qima, yozuvchi, dramaturg xayolotida o'ylab topilgan hayotiy lavhalar. Bu badiiy to'qimalar rostga aylanishi kerak. Bu o'z yo'lida muallif mahoratiga bog'liq. Muallif goh tarixiy, goh ijtimoiy, goh maishiy mavzuga murojaat qilar ekan, insoniy muammolarni rost, ishonarli qilib dramaturgiya qonunlariga moslab yozmog'i kerak.

Buyuk shoir A.S.Pushkin "to'qimalarimdan o'z ashkinga chulg'anaman", - deb yozadi. To'qimaning rostligi shoirni larzaga soladi. Yozuvchi shu bugungi muammolar yechimini boshqa davrlardan qidiradi, murojaat qiladi. Shekspir Angliyada sodir bo'layotgan qusurlarga javobni boshqa asrdan, o'tgan zamonlardan topadi. Abdulla Qodiriy ham shunday mavzuni o'tgan

zamonlardan boshlaydi. Badiiy to'qima yozuvchi iqtidoriga, xayolot dunyosiga bog'liq. Bu san'atga xos bo'lgan xususiyatdir.

Umuminsoniy abadiy mavzular, muammolar bor: muhabbat, nafrat, o'lim, hasad, rashk kabilar hech qachon o'lmaydi. Insoniy xislatlar, ezgulik va yovuzlik, itoat va takabburlik, mehr va shafqatsizlik, donolik va nodonlik, saxiylik va xasislik, insonning barcha his-tuyg'ulari asarlarda o'z ifodasini topsin. O'tkinchi, kundalik mavzular bor: ular sharoitdan, vaziyatdan kelib chiqib yozilgan tezpishar asarlar. Bular tez eskiradi va nazardan tushib qoladi.

Yaqin o'tmishda yozilgan va o'sha davrni ulug'lagan ko'pgina sahna asarlari hozir keraksiz bo'lib qoldi. Rejissyor asar tanlar ekan, mana shu narsalarga e'tibor berishi kerak. Bundan tashqari har bir yozuvchining o'ziga xos xususiyatlari, yozish

uslublari mavjud. Masalan, Oybekni Abdulla Qahhordan, Abdulla Qodiriyning Tog‘ay Muroddan tili, uslubi, tasvir ifodalari, qiyofalari bilan bemalol ajrim qilish mumkin. Rejissyor yozuvchining nimaga qodir ekanligini, o‘ziga xosligi nimadalgini, qaysi jihatlari bilan ajralib turishini aniqlab olish lozim. Demak yozuvchi - dramaturg qahramonlar nimani gapirayotganini yozadi, rejissyor qanday gapirayotganini ochib beradi. Ba‘zan dramaturg rejissyorga yordam bo‘lsin uchun voqea sodir bo‘layotgan joylarni ipidan ignasigacha luqmalarda (replika) tafsilotini beradi. Ba‘zan yozuvchi rejissyorning o‘ziga talqinni havola qiladi. Muallif ruhiyatini, unga yashiringan muddaoni rejissyor ilg‘ashi, topishi kerak bo‘ladi.

A.P.Chexov, M.Gorkiy o‘z pyesalarini komediya deb yozadi. Aslida uning zamirida dramatik holatlar, fojialar yotgan bo‘ladi. Rejissyor muallif ijodini, dunyoqarashini, uning kayfiyatini, uslubiyatini chuqur o‘rgangan, asarni sahnalashtirganga qadar o‘ziga xoslik tomonlarini yaqqol anglagan bo‘ladi. Ba‘zan bitta mavzuni bir necha muallif o‘z ijodida qalamga oladi. Masalan, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Sabba‘i sayyor”, “Saddi Iskandariy” va hokazolar. Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy nega bu

mavzularga qo‘l urgan, versiyalar turlicha, yondashuvlardagi tafovut nimada? Boshqa manbalardagi farq va oxir-oqibat rejissyor bu asarni sahnalashtirishdan maqsad shaxs sifatida nima demoqchi, qanday yangi gap aytmoqchi, mana shu holatlar rejada o‘z ifodasini topsin. Pyesa adabiy mahsul, uni o‘qish mumkin. Rejissyor unga hayot bag‘ishlaydi, murakkab ijodiy jarayonni boshdan kechiradi. Sahnada san‘at mahsulini, tomoshabinga mo‘ljallangan jonli mahsulni ro‘yobga chiqaradi. Bu mahsul – spektakl tomoshabin vijdonini g‘ulg‘ulaga solsin, qalbini junbushga keltirsin.

Shu o‘rinda adabiy mahsulning sifati, ko‘targan yuki, beradigan ma‘naviy ozuqasi haqida rejissyor munosabatini o‘ylab ko‘rsak. So‘nggi vaqtlarda sahnani, kinoekranni, televizion efirni o‘ta jo‘n, sayoz, bir ko‘rimli “asar”lar to‘ldirib ketdi. Teatrga, kinoga kirgan, televizorni tomosha qilgan tomoshabinning hafsalasi pir bo‘layapti. Bu nima? Haqiqiy san‘atga bo‘lgan talabning susayishimi? Tomoshabin didi o‘tmaslashganimi? Yuksak san‘at namunalari qayerda qoldi? Bir domlam “saryog‘ turgan joyda margarinni yeb nima qilamiz” , degan edi. Yuksak adabiy asarlar, haqiqiy ijod namunalari turgan joyda biz o‘rtamiyona, tomoshabinga hech narsa bermaydigan “asar”larni sahnalashtirib, ekranlashtirib, efirga uzatib nima qilamiz. Menimcha haqiqiy rejissyor badiiy asar tanlashda, uning ustida ishlashda mana shunga e‘tibor berishi kerak. Agar san‘atning burchi yuksak saviyali barkamol insonni tarbiyalash bo‘lsa rejissyor kelgusi avlod oldida, uning dunyoqarashi, saviyasi oldida o‘ta mas‘ul ekanligini hech qachon unutmaslik kerak.

2.3. Eng dolzarbiga urg‘u berish uslubi. To‘g‘ri talqin tomoshabin uchun g‘oyaviy da‘vat sifatida

Muallifning har bir asari rejissyor talqiniga bog‘liq. Rejissyor ham spektakl muallifi hisoblanadi. Qog‘ozdagi so‘zlarga jon ato qilgan, unga umr bergan, o‘z zakosi bilan jonli sahna asarini ijodiy jamoa bilan yaratgan rejissyor hisoblanadi. Rejissyor va muallif birligi maslakdoshligi katta rol o‘ynaydi. Rejissyor dardi dramaturg dardi bilan hamohang bo‘lishi kerak. Stanislavskiyning Chexov va Gorkiy bilan yaqinligi, Mannon Uyg‘urning Hamza bilan maslakdoshligi, Toshxo‘ja Xo‘jayevning Oybek, Erkin Vohidov bilan hamkorligi, Bahodir Yo‘ldoshevning Said Ahmad bilan, Rustam Hamidovning O‘lmas Umarbekov bilan izlanishidan ajoyib sahna asarlari yaratildi. Ba‘zi rejissyorlar muallif tanlamaydi, duch kelgan asarni sahnalashtiradi. Bunday rejissyorlar ijodni kasbga almashtirgan, u asardan bu asarga o‘zini takrorlaydigan hunarmand rejissyorlardir. Ayrimlarga voqea qayerda kechadi, qachon kechadi, tarixiymi, zamonaviymi farqi yo‘q, o‘z uslubi tayyor qolipi bor, sahnalashtiraveradi. Bu o‘z navbatida tomoshabin qalbini jiz ettirmaydi, larzaga solmaydi, hafsalasi pir bo‘lib teatrni tark etadi. Qars ikki qo‘ldan deganiday dramaturg o‘ylab topgan mavzu, matn, qog‘ozdagi qiyofalar rejissyor sayi-harakati tufayligina jonlanadi, hayotiy haqiqatga aylanadi, tomoshabin larzaga tushadi, ma‘naviy kamol topadi. Teatr san‘ati- shartli san‘at. Sahnaga haqiqiy daraxtni, paxsa devorni olib chiqib bo‘lmaydi. Tomoshabin chizilgan jihozlarni, yasama rekvizitlarni tushunadi, hamma gap ijroda, uning ishonarli jonli va hayotiy chiqishida, talqinida. Tomoshabin teatrga nega tushadi? Aktyorning jonli ijrosi, uni yuzma-yuz turib tomosha qilish, har gal yangi holat, yangicha ruh, harorat o‘ziga jalb qilaveradi. Qiyofalar turlanishi, voqealar rivoji, ijrochilarning har safar rolga o‘zini baxshida qilishi tomoshabinni o‘z domiga tortaveradi. Teatrning jozibasi ham shunda. Ba‘zilar televideniye paydo bo‘lgandan keyin teatr o‘ladi deb bashorat qilgan edilar, yo‘q teatr o‘z jonli mehriyosi - ijrosi bilan abadiy san‘at ekanligini isbot qildi. Kino va televideniyaning ravnaqiga qaramay keyingi yillarda tomoshabin teatrga yana oqib kela boshladi.

To‘g‘ri, teatr san‘ati asrlar davomida qutining ichida qolib ketaverdi, yangi texnik imkoniyatlar yaratilmadi. Endi-endi teatr tomoshalari ochiq maydonga chiqa boshladi. Bu esa o‘z navbatida rejissyorlarga yangi imkoniyatlar yaratdi. To‘rt devorning ichida qolgan teatr san‘ati, yangi kino san‘atining paydo bo‘lishiga olib keldi. Dramaturg va rejissyor teatrdagi qila olmagan ijod mahsulini kino san‘atida amalga oshirdi. Kinoda voqealar ko‘lamining kengligi, vaqt cheksizligi ssenarist uchun ham rejissyor uchun ham katta sharoitlarni tug‘dirdi.

Teatrdagi rejissyor bilan dramaturg hamkorligi kino san‘atida rejissyor va ssenariy muallifi hamkorligiga aylandi. Teatrdagi kabi kinoda ham rejissyor film

muallifi hisoblanadi. Kinodramaturg o‘ylab topgan voqealarni jonlantiradigan, uni ko‘rimli tomoshaga aylantiradigan shaxs bu kino rejissyordir. Teatr san‘atini sintetik san‘at dedik. Kino ham teatr kabi sintetik san‘at hisoblanadi. Teatrdagi aktyor, rassom, bastakor, chiroqchi, liboschi, pardozi, rekvizitlar tufayli spektakl bunyodga kelsa, kinoda bundan ham murakkabroq ularga qo‘shimcha tasvirchi-operator, assistent, ovoz operatori, montajchi, lablashtiruvchi va boshqa qator texnik xodimlar tufayli film vujudga keladi. Yoz demay, qish demay, kech demay, kunduz demay mashaqqatli mehnat, juda katta ijodiy jamoaning birligi sababli kinofilm dunyoga keladi, tomoshabin yuzini ko‘radi. “Tohir va Zuhra”, “Alisher Navoiy”, “Nasriddinning sarguzashtlari”, “O‘tgan kunlar”, “Mahallada duv-duv gap” kabi mumtoz filmlar mana shunday mashaqqatlar evaziga bunyod etildi. Nabi G‘aniyev, Komil Yormatov, Yo‘ldosh A‘zamov, Malik Qayumov, Shuhrat Abbosov kino san‘atimizning darg‘a rejissyorlari hisoblanadi. Bu rejissyorlar kino san‘atining qonuniyatlari, sir- asrorlarini yaxshi bilganliklari uchun, kinodramaturglar bilan hammaslak bo‘lib ishlaganliklari uchun ana shunday jahonga mashhur filmlar yaratdilar. Necha yillar o‘tsa ham bu filmlarni qayta-qayta ko‘rging kelaveradi. Kino san‘atining ajoyib xislati ham mana shunda. U lentaga muhrlangan. Tasmada saqlanayapti. Uni takror va takror ko‘ra olamiz. Teatr san‘atining fojiasi shundaki, uni har kuni muhrlab bo‘lmaydi, har kungi jonli ijroni saqlab qololmaymiz. Bir marta muhrlandimi, tasmaga tushirildimi, shu qoladi. Hozirgi elektron texnika taraqqiyotini afsuski o‘tgan asr o‘rtalaridagi buyuk san‘atkorlar ko‘ra olishmadi. Mannon Uyg‘ur, Mariya Kuznetsova, Yetim Bobojonov, Abror Hidotovlarning yuksak darajada yaratgan jonli qiyofa va spektakllari saqlanib qolmadi, ayrim xronikadagi lavhalar, urvoq kadrlargina xotira sifatida qoldi. Teatrdagi mashhur spektakllar ayrim suratlar orqaligina ko‘z oldimizda gavdalanadi, rejissyor va dramaturg hamkorligini tasavvur qilamiz.

Ommaviy axborot vositalarining shakllanishi, elektron texnikaning keskin rivoji teatrga ham, kinoga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Rejissyor va dramaturg hamkorligining yangi qirralari ochildi. Avvallari teatr va kino san‘atida amalga oshmagan mo‘jaz filmlar, kichik novellalar, uzundan- uzoq seriallar, hujjatli ekran asarlari, publitsistik janrlar, film portretlar, kundalik informatsion ko‘rsatuvlar XX asr mo‘jizasi televideniye tufayli dunyoga keldi va rivoj topdi. Televideniye va radio kirmagan xonadon qolmadi.

Buyuk yozuvchilar buyuk rejissyor bo‘ladi, der edi ustozim. Darhaqiqat Shekspir ham, Balzak ham, Lev Tolstoy ham, Abdulla Qodiriy ham buyuk rejissyorlardir. Ularning har bir satri, har bir sahnasi, so‘zi zamirida yotgan fikrlar rejissyor uchun katta bir ma‘naviy ozuqa, sahnalashtirishning ulkan imkoniyatlarini yaratib beradi, tasavvuringizda, ko‘z oldingizda o‘z- o‘zidan voqealar tizmasi jonlanib namoyon bo‘laveradi. Siz uni muallif uslubini, oldiga qo‘ygan maqsad,

niyatlarini buzmaganda holda ro'yobga chiqarsangiz bas, shuning o'zi yetadi. To'g'ri, rejissyor ijodkor shaxs sifatida o'zining "men"i, muallifga munosabati, davrga hamohangligi, avval ochilmagan qirralarni asardan topishi, yangi yondashuvni zamondoshga izhor qilishi, uni larzaga keltirishi lozim. Ammo ko'pincha rejissyorlar o'zini namoyon qilib, "men"i bo'rtib, muallifning fikri-zikri ikkinchi darajali bo'lib qolayotgan hollari uchrab turibdi. Men mumtoz asarlarga har gal yangicha ifoda topib yangi talqinda tomoshabinga havola etilgan spektakllarni ko'rib, hayratga tushganman. "Revizor", "Hamlet", "Otello", "Qutlug' qon", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Qiyomat qarz" shular jumlasidandir. Asarlarni sahnalashtirishda rejissyor yozuvchining biron so'zini o'zgartirmay yangi qatlam fikrlarni topa bilgan. Talqinda gap ko'p. Rejissyor bir asarni har asnodan ko'rishi, o'ziga kerakli durni topib olishi mumkin. Ikkinchi jahon urushida Aleksandr Korneychukning "Front" asari sahnalashtirilgan. Asar qahramonlari, sovet zobitlari va askarlari nemisga qarshi kurashadi. "Sovet"da qo'yilgan bu asar vatanparvarlik ruhida tayyorlanib dushmanga nafrat uyg'otgan. Aynan shu asarni Germaniyada sahnalashtirilib bironta so'zini o'zgartirmasdan ko'rsatishgan. Natijada nemis zobitlari aqlli, idrokli, sovet zobitlari ahmoq, laqma sifatida namoyish qilingan. Farq uslubda, ijro ohangida, talqinda. Demak, asarning qo'yilishida gap ko'p ekan. Rejissyor qanday qo'ysa, tomoshabinga qanday havola qilsa, shunday taassurot qolar ekan. Dramaturg yozadi, muallif ham o'zi. Lekin sahnalashtirilgan asar – spektakl muallifi rejissyordir. Qog'ozdagi muallif dardi bilan sahnada jonlangan rejissyor dardi hamohang bo'lib, uyg'unlashib ketsa, maslak bir joydan chiqsa, asar muvaffaqiyati, uzoq umr ko'rishi shundan bo'ladi.

Bahrom Rahmonovning "Yurak sirlari" dramasi bo'lardi. Taniqli bo'lmagan dramaturg, mashhur bo'lmagan asar, shu asarga jon ato qilgan, uni mashhur qilgan rejissyor Toshxo'ja Xo'jayev bo'ladi. Ajoyib shoir Erkin Vohidov "Oltin devor"ning qoralamasini teatrda olib kelganida, unga ishlov bergan, ko'rimli tomoshaga aylantirgan, hozirga qadar sahnadan tushmaydigan komediyani vujudga keltirgan, shoirni dramaturg qilgan - Toshxo'ja Xo'jayev bo'ladi. Oybekning "Qutlug' qon" asarini sahnalashtirayotganda, mashq jarayonida zalda o'tirgan Oybek sahnadagi bezak, ijro mahoratini ko'rib, ijod jarayonining ketishiga qarab necha bor rejissyor Toshxo'ja Xo'jayevning yelkasiga qoqib qoyil qolganini, tasannolar aytganining shohidi bo'lganman. Dramaturg Sharof Boshbekovning "Temir xotin" asari yozilganida, qator teatrlar uni sahnalashtirdi. Biri komediya, biri fars qilib ijro etdi. Lekin kulgu tagida ijtimoiy fojia yotganligini rejissyor Olimjon Salimov ilg'adi. Bir kuni Sharof Boshbekov "Mahkam aka, asarimni Farg'onada Olimjon Salimov ko'nglimdagiday sahnalashtiribdi", deb tan oldi. Muallif dardi, rejissyor dardi bir yerdan chiqdi. Qars ikki qo'ldan deganiday, dramaturgning

qochirimlarini, kulgu tagida yig‘i borligini rejissyor anglay bilgan va uni mohirona ijroda ro‘yobga chiqargan.

Pyesa birlamchi, spektakl ikkilamchi hisoblanadi. Atayin sahnaga yozilgan asarlar bor: drama, komediya, tragediya, opera, operetta, musiqali drama va hokazolar. Sahnaga moslashtirilgan (adaptatsiya) asarlar ham bor: roman, qissa, novella insenirovkalari.

Badiiy asar ustida ishlaganda rejissyor birinchi holatda asar mavzusi, g‘oyasi, shu kun uchun dolzarbliligi ustida bosh qotirishi, tomoshabinga qanday ma‘naviy ozuqa berishi haqida o‘ylashi kerak.

Biz bilamiz, barcha badiiy asar - to‘qima, yozuvchi, dramaturg xayolotida o‘ylab topilgan hayotiy lavhalar. Bu badiiy to‘qimalar rostga aylanishi kerak. Bu o‘z yo‘lida muallif mahoratiga bog‘liq. Muallif goh tarixiy, goh ijtimoiy, goh maishiy mavzuga murojaat qilar ekan, insoniy muammolarni rost, ishonarli qilib dramaturgiya qonunlariga moslab yozmog‘i kerak.

Buyuk shoir A.S.Pushkin “to‘qimalarimdan o‘z ashkinga chulg‘anaman”, - deb yozadi. To‘qimaning rostligi shoirni larzaga soladi. Yozuvchi shu bugungi muammolar yechimini boshqa davrlardan qidiradi, murojaat qiladi. Shekspir Angliyada sodir bo‘layotgan qusurlarga javobni boshqa asrdan, o‘tgan zamonlardan topadi. Abdulla Qodiriy ham shunday mavzuni o‘tgan zamonlardan boshlaydi. Badiiy to‘qima yozuvchi iqtidoriga, xayolot dunyosiga bog‘liq. Bu san‘atga xos bo‘lgan xususiyatdir.

Umuminsoniy abadiy mavzular, muammolar bor: muhabbat, nafrat, o‘lim, hasad, rashk kabilar hech qachon o‘lmaydi. Insoniy xislatlar, ezgulik va yovuzlik, itoat va takabburlik, mehr va shafqatsizlik, donolik va nodonlik, saxiylik va xasislik, insonning barcha his-tuyg‘ulari asarlarda o‘z ifodasini topsin. O‘tkinchi, kundalik mavzular bor: ular sharoitdan, vaziyatdan kelib chiqib yozilgan tezpishar asarlar. Bular tez eskiradi va nazardan tushib qoladi.

Yaqin o‘tmishda yozilgan va o‘sha davrni ulug‘lagan ko‘pgina sahna asarlari hozir keraksiz bo‘lib qoldi. Rejissyor asar tanlar ekan, mana shu narsalarga e‘tibor berishi kerak. Bundan tashqari har bir yozuvchining o‘ziga xos xususiyatlari, yozish uslublari mavjud. Masalan, Oybekni Abdulla Qahhordan, Abdulla Qodiriyning Tog‘ay Muroddan tili, uslubi, tasvir ifodalari, qiyofalari bilan bemalol ajrim qilish mumkin. Rejissyor yozuvchining nimaga qodir ekanligini, o‘ziga xosligi nimadaligini, qaysi jihatlari bilan ajralib turishini aniqlab olish lozim. Demak yozuvchi - dramaturg qahramonlar nimani gapirayotganini yozadi, rejissyor qanday gapirayotganini ochib beradi. Ba‘zan dramaturg rejissyorga yordam bo‘lsin uchun voqea sodir bo‘layotgan joylarni ipidan ignasigacha luqmalarda (replika) tafsilotini beradi. Ba‘zan yozuvchi rejissyorning o‘ziga talqinni havola qiladi. Muallif ruhiyatini, unga yashiringan muddaoni rejissyor ilg‘ashi, topishi kerak bo‘ladi.

A.P.Chexov, M.Gorkiy o‘z pyesalarini komediya deb yozadi. Aslida uning zamirida dramatik holatlar, fojialar yotgan bo‘ladi. Rejissyor muallif ijodini, dunyoqarashini, uning kayfiyatini, uslubiyatini chuqur o‘rgangan, asarni sahnalashtirganga qadar o‘ziga xoslik tomonlarini yaqqol anglagan bo‘ladi. Ba‘zan bitta mavzuni bir necha muallif o‘z ijodida qalamga oladi. Masalan, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Sabba’i sayyor”, “Saddi Iskandariy” va hokazolar. Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy nega bu mavzularga qo‘l urgan, versiyalar turlicha, yondashuvlardagi tafovut nimada? Boshqa manbalardagi farq va oxir-oqibat rejissyor bu asarni sahnalashtirishdan maqsad shaxs sifatida nima demoqchi, qanday yangi gap aytmoqchi, mana shu holatlar rejada o‘z ifodasini topsin. Pyesa adabiy mahsul, uni o‘qish mumkin. Rejissyor unga hayot bag‘ishlaydi, murakkab ijodiy jarayonni boshdan kechiradi. Sahnada san‘at mahsulini, tomoshabinga mo‘ljallangan jonli mahsulni ro‘yobga chiqaradi. Bu mahsul – spektakl tomoshabin vijdonini g‘ulg‘ulaga solsin, qalbini junbushga keltirsin.

Shu o‘rinda adabiy mahsulning sifati, ko‘targan yuki, beradigan ma’naviy ozuqasi haqida rejissyor munosabatini o‘ylab ko‘rsak. So‘nggi vaqtlarda sahnani, kinoekranni, televizion efirni o‘ta jo‘n, sayoz, bir ko‘rimli “asar”lar to‘ldirib ketdi. Teatrga, kinoga kirgan, televizion tomosha qilgan tomoshabinning hafsalasi pir bo‘layapti. Bu nima? Haqiqiy san‘atga bo‘lgan talabning susayishimi? Tomoshabin didi o‘tmaslashganimi? Yuksak san‘at namunalari qayerda qoldi? Bir domlam “saryog‘ turgan joyda margarinni yeb nima qilamiz” , degan edi. Yuksak adabiy asarlar, haqiqiy ijod namunalari turgan joyda biz o‘rtamiyona, tomoshabinga hech narsa bermaydigan “asar”larni sahnalashtirib, ekranlashtirib, efirga uzatib nima qilamiz. Menimcha haqiqiy rejissyor badiiy asar tanlashda, uning ustida ishlashda mana shunga e’tibor berishi kerak. Agar san‘atning burchi yuksak saviyali barkamol insonni tarbiyalash bo‘lsa rejissyor kelgusi avlod oldida, uning dunyoqarashi, saviyasi oldida o‘ta mas’ul ekanligini hech qachon unutmash kerak.

Nazorat savollari

1. Spektaklning janri qanday aniqlanadi?
2. Rejissyor uchun muallif uslubini aniqlash qanday ahamiyatga ega?
3. Tragediya janrini o‘ziga xos xususiyatlarni izohlang.
4. Komediya janri qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?
5. Drama nega aforizm darajasidagi fikrlar majmuasi deyiladi?
6. Janr tushunchasini qanday izohlaysiz?
7. Rejissyor o‘z spektaklida janr xususiyatlarini o‘zgartira oladimi?
8. Mavzuning dolzarbligi qanday aniqlanadi?
9. G‘oyaning zamonaviyligi nimalarda aks etadi?
10. Spektaklning asosini nega rejissyorlik talqini hal qiladi?

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Arastu. Poetika. Yangi asr avlodi, 2016
2. Usmonov R. Rejissura. T.:Fan, 1997.
3. Salimov O. Kasbim rejissyor. – T: Fan, 1997
4. Azizov T. Mening rejissyorlik ishlarim. – T.: Konsalt, 2008.
5. Isroilov T. Rejissura. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1- Amaliy mashg‘ulot. Zamonaviy rejissuraga fan, texnika hamda badiiy rivojlanishning ta’siri (2 soat).

Ishdan maqsad: zamonaviy rejissuraga fan, texnika hamda badiiy rivojlanishning ta’sirini tinglovchilarga yetkazish.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar tomonidan kichik guruxlarga bo‘linib, ular har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollardan javob olish jarayonida og‘zaki tahlil orqali sharhlab berishi lozim.

Ishni bajarish uchun namuna

O‘qituvchi talabalarni 4-guruhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma’lumot beradi. (darslik, ma’ruza matni, internet materiallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e’lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e’lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e’tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

2-amaliy mashg‘ulot. Rejissura tarixida na’muna darajasida e’tirof etilgan talqinlar tahlili (4 soat).

Ishdan maqsad: na’muna darajasidagi spektakllarni tanlab olish va ularning tahlilini o‘tkazish

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruh “Rejissyor” so‘zi misolida sinkveyn yechadilar. Guruhlar o‘z mulohazalarini o‘qib eshittirib, og‘zaki tahlil orqali o‘zaro fikr-mulohaza almashadi.

Ishni bajarish uchun namuna

Sinkveyn

- ▶ _____ Ot (sushestvitelnoye ili mestoimeniye)
- ▶ _____ Sifat (prilagatelniye)
- ▶ _____ Fe'l (glagol)
- ▶ _____ Ibora-gap (fraz)
- _____ Sinonim yoki rezyume

Mazkur metod nazariy asosni mustahkamlash, yangi ma'lumotlarni puxta o'zlashtirish maqsadlariga xizmat qiladi. Ushbu metod yordamida talabalarning o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasini aniqlash, mavzu doirasida ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholash imkoniyati kengayadi.

3-amaliy mashg'ulot. Rejissyorlik mahoratini o'qitishga ilg'or horijiy tajribalar tadbiqui (2 soat).

Ishdan maqsad: "rejissura" fanining respublikadagi holati jahon tajribasi bilan muqoyasa qilish asosida o'rganish va baholashdan iborat.

Masalaning qo'yilishi: tinglovchilar rejissura ta'lim tizimidagi o'rnini bevosita malakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq holda belgilanishi bo'yicha amaliy ko'nikmalarini namoyish etadilar.

Ishni bajarish uchun namuna

Sohaning SWOT tahlili. Globallashuv jarayonida ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'zgarishlar tendensiyasi va istiqbolli rejasini tadbiqu etish. Tinglovchilar guruhlariga bo'linib, "Rejissyorlik mahoratini o'qitishga ilg'or horijiy tajribalar tadbiqui" mavzusida SWOT tahlilni amalga oshiradilar. Guruhlar o'z chiqishlarida har bir punkt bo'yicha bildirilgan fikrlarni tahliliy asoslab, ilmiy basharatlarini ifoda etadilar. Guruhlarning muammoni aniq ko'rsatishi va kelajakni bashorat qilishdagi tahliliy yondoshuvlari boshqa guruhlar tomonidan baholanadi.



Ushbu metodning ta'lim jarayonida qo'llanishi muammoni turli rakurslarda ko'rish, uning yechimiga doir atroflicha izlanishlar olib borish ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada talabada mustaqil fikrini bildirish, o'z qarashlarini himoya qilish va eng muhimi tanqidiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari mazkur metod talabani jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantirib, guruhda liderlarning kashf qilish, passivlikdan aktivlikka olib chiqish maqsadlarini rag'batlantiradi.

V. KO'CHMA MASHG'ULOT

V.KO‘CHMA MASHG‘ULOT

1-ko‘chma mashg‘ulot: Repertuarda rejissuraning hamda teatr jamoasining badiiy imkoniyatlarini namoyon bo‘lishi (4 soat)

Tinglovchilar guruhi bilan Toshkent shahrida joylashgan O‘zbek Milliy akademik drama teatriga tashrif buyuradilar. Teatrning ishlash kundaligi, repetitsiyalar jarayoni, ishlab chiqarish faoliyati bilan tanishiladi. Darsdan so‘ng muayyan spektakllar tahlil qilinadi va teatrning o‘ziga xosligi borasida fikr almashinadi.

“Rejissura — bu spektakl yaratish san’atidir.”, — deydi Stanislavskiy. Har qanday san’atning vazifasi esa badiiy obraz yaratishdir. Teatr sahnasidagi badiiylik dramatik asar asosida kelib chiqadi. Rejissyorning pyesa ustida ishlashi, uni badiiy barkamol sahna asari darajasiga yetkaza olish qobiliyati teatr san’atida asosiy omil hisoblanadi.

Spektakl yaratish jarayoni — turli kasb va san’at vakillari bo‘lgan katta jamoaning hamkorlikdagi ijodi natijasi bilan bog‘liq. Shuning uchun teatr jamoasining siyosiy va badiiy kiyofasini ular hamkorlikda yaratgan repertuar belgilaydi, degan hikmat bejiz emas.

Teatrlarning repertuarlaridagi mumtoz asarlar dastavval ijodiy jamoani badiiy tarbiyalashga xizmat qiladi. Buning uchun jamoa o‘z repertuarlari asosiga har yili bitta mumtoz asarni, professional teatrlarda sahnalashtirilgan va sinovlardan o‘tgan pyesalarni olishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu jarayonda ijodkorlar jamoasi va rejissyor o‘g‘irlangan shaklga, hunarmandlikka, taqlidchilikka yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Repertuar tanlashda asosan quyidagi prinsiplar talab qilinadi —badiiy sifati yuksak, g‘oyaviyligi namunali, mavzusi dolzarb, hayotiy voqealar to‘g‘ri ifodalangan, shuningdek, qarama-qarshiliklarning keskinligi, obrazlarning tipikligi, xarakterlarning pishiqligi va zamon talablariga javob bera oladigan mavzu va g‘oyaning uyg‘unligi sahna asarida yorqin ifodalangan bo‘lishi zarur. Undan tashqari ijobiy qahramonlarning tasvirlanish mahorati hamda salbiy personajlarning esda qoladigan tubanligi hisobga olinadi.

Qahramonlar xarakterining mukammalligi, ular fikrlarining tiyrakligi, ko‘tarib chiqilgan muammolarning o‘z davri talablariga hamohangligi spektakl muvaffaqiyatini belgilaydi. Buyuk teatr nazariyotchilari va tanqidchilari, avvalo, dramaturgiyaning badiiy shakliga, sahnaviy imkoniyatlariga, uning tomoshabin oldidagi tarbiyaviy qudratiga alohida e’tibor berganlar.

Sahna asarining asosida — hayotiy haqiqat va uning badiiy ifodasi bo‘lmas ekan, shuningdek, hayot qonunlariga, inson zakovatining intilishlariga bo‘ysunmas

ekan bunday pyesa ijodiy jamoani xafsalasizlikka olib keladi. Shuning uchun ulug‘ dramaturglarning jahon sahnasidan tushmay kelayotgan asarlari ilg‘or teatrlar repertuaridan joy olib, rejissyorlarning hayotiy haqiqat prinsiplariga ijodiy va badiiy yondashishiga asos bo‘lib kelmoqda.

Spektakl yaratishda rejissyor ijodini to‘lqinlantiruvchi, sahnaviy rejani barpo etuvchi, aniq va yorqin sahnalashtirish tizimini vujudga kelishiga sababchi — pyesadir. “Rejissyor rejasining asosi pyesadagi mazmun va g‘oyadir”, — deb yozadi ulkan rejissyor, pedagog va olim A.D.Popov. Rejissyorning oliy maqsadi esa spektaklning barcha qismlari mukammalligiga erishish va mantiqiy yechimga intilishdir. Gap shundaki, dramatik asar tasvirlashi kerak bo‘lgan obyekt — hayotdir, ya’ni jonli, xatti-harakatli, karama-qarshilikka ega bo‘lgan insonlar va jamiyat hayotidir. Har qanday hayotiy voqea ham dramatik asarga material bo‘la olmaydi. Lekin shunday hayotiy voqealar borki, ular dramatik san’atga asos bo‘ladi va yorqin shaklda namoyon bo‘ladi. V.G.Belinskiy aytganidek — “badiiy asarning asosi — voqea, dramani esa insondir. Badiiy asarning qahramoni — hodisa, dramani esa — inson shaxsidir”.

Bundan xulosa shuki, dramatik asarga — ichki hissiy xarakter quvvatiga ega bo‘lgan, xatti-harakatga boy kishilar orasidagi keskin munosabatlar asos bo‘lishi mumkin.

VI. KEYSLAR BANKI

V. KEYSLAR BANKI

1-KEYS.

Pedagogika bo'yicha yaratilgan adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularda —Ta'lim jarayoni tushunchasining mohiyati turlicha yoritilgan.

Ta'lim jarayoni – bu:

1. O'quvchilarga bilimlarni berib, ularda ko'nikma, malakalarni berish orqali u yoki bu darajada ularning o'zlashtirilishini ta'minlash (o'qitish)ga qaratilgan faoliyat.
2. O'quvchilar tomonidan BKMning o'zlashtirilishi (o'qishi)ni ta'minlovchi jarayonini boshqarishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati (chunki o'qitish va o'qitish – ta'limning o'zaro aloqador va o'zaro shartlangan tomonlaridir).
3. O'qituvchining o'quvchilar tomonidan BKMni ongli va puxta o'zlashtirilishiga yo'naltirilib, bu jarayonda bilimlarning mustahkamlanishi, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati elementlarini o'zlashtirish, dunyoqarashni boyitish va o'quvchilar xulq-atvorining shakllanishini ta'minlovchi rahbarligi va harakatlarining izchilligi.
4. O'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida BKMni o'zlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan faol bilish faoliyati.

Savollar:

1. Ulardan qaysi biri ta'lim jarayonining mohiyatini to'la yoritadi?
2. Fikringizni qanday asoslaysiz?

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil) ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

1. Mazmuniga ko‘ra barcha ta’riflar ham ta’lim jarayonining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Biroq, muayyan fan har bir kategoriya bo‘yicha o‘zining aniq terminologiyasiga ega bo‘lishi, tushunchalar voqea, hodisa yoki jarayonning umumiy tavsifini, obyekt va predmetlarga xos muhim belgilarni yoritishga xizmat qilishi zarur.

2. Keltirilgan ta’riflar asosida tegishli jarayonga xos umumiy tavsiflar negizida tushunchani quyidagicha sharhlash maqsadga muvofiq: ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etilgan holda ilmiy bilim, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

2-KEYS

.Birinchi sinfda o‘qiyotgan Dilshod she’rni ifodali o‘qib bergani uchun —besh baho oldi. O‘qituvchi uni buning uchun maqtadi. Dilshod uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarni oyisiga aytdi. U, hatto, o‘zi yod olgan she’rni oyisiga ham o‘qib bermoqchi bo‘ldi. Ammo, oyisi Dilshodning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va o‘g‘liga qayrilab ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, - endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermagin-da, o‘ynab kel!

Dilshod tushlik ham qilmay ko‘chaga chiqib ketdi.

Savollar:

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Dilshodning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?
3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga qanday ta'sir o'tkazadi.

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.
4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan tarbiya tamoyili (ikkita tamoyil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

1. Nihoyatda yoqimsiz vaziyat. Onasi Dilshodning maktabga qanday borib kelganligi bilan ham qiziqmadi.
2. Dilshodning onasi tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiya jarayonida rag'batlantirish tamoyillariga zid ish qildi.
3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazadi, asta-sekin unda qo'rslik, befarqlik, o'z-o'zini past baholash, o'ziga va atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatlar shakllanadi.

3-KEYS.

1. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakllarni aniqlash.
2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali metodlarni tanlash.
3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiya vositalari belgilash.


Tinglovchilar uchun metodik ko'rsatmalar

1. Tegishli adabiyotlardan shakl, metod va vosita tushunchalari qanday ma'no anglatishini yodga oling.
2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va shaxs ma'naviyatini shakllantirish jarayonlarining mohiyatini chuqur o'rganing.
3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalar aniqlang.
4. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalarini tizimlashtiring.
5. Ko'zgazma metodi yordamida oila tarbiyasining talabalar ma'naviyatini yuksaltirishdagi samarali shakl, metod va vositalari asosida plakat ishlang.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi
1-topshiriq bo'yicha



VII. GLOSSARIY

VI. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Aktyorlikka oid mahorat fanlari	tashkiliy va badiiy maqsadlarga erishish uchun talabalar va shu sohaning vakillariga beriladigan saboqlar sohaga mo‘ljallangan darslar OTM yoki tashkilotning qarori bilan belgilanadi.	an integrated management protsess which sees mutually satisfying exchange relationships with customers as the route to achieving organizational and artistic objectives
Rejissyorlikning o‘ziga xos tendensiyalari	Ma’lum bir kinofilm yoki spektaklni namoyishi yoki tayyorlanishiga qaratilgan senariy asosida yaratilayotgan badiiy asarni namoyish etishda zarur bo‘ladigan qonun-qoidalar.	an economical and cultural relationship system of fine and applied arts, where artwork’s supply and demand are formed, aesthetic price and material value are assessed
Rejissyor	Spektakl yoki kinofilm sahnalashtirishga ma’sul boshliq yoki rahbar.	a process of buying and selling goods or services by offering them up for bid, taking bids, and then selling the item to the highest bidder.
Interpretatsiya	Kinoasar va spektaklni olinish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiluvchi muhim omil.	the variables, such as price, promotion, and service, managed by an organization to influence demand for a product or service
Kinokampaniya	Turli xildagi kinofilmlarni ishlab chiqaruvchi va ular ustidan bevosita nazorat qiluvchi davlatga qarashli yoki xususiy tashkilot.	it's not only organisation's successful operation in the past, but also a result of activity condition in the present and future
Sahna dekoratsiyasi	Kino yoki spektaklni namoyish qilishga kerak bo‘ladigan qurilmalar majmuasiga aytiladi.	feasible consumers, possible consumers
Antrakt	Aktyorlarga film yoki spektaklni namoyish oralig‘ida dam olish uchun beriladigan tanaffus.	the general impression that a person, organization, or product presents to the public
Sahnalashtirish	Asarning mazmun mohiyatidan kelib chiqib unga munosib aktyorlarni tanlab namoyish qilishga tayorlanish jarayoni.	the establishment of objectives and the formulation, evaluation and selection of policies, strategies, tactics and actions required to achieve them

Afisha	konofilm yoki spektaklni namoyishi namoyishi qachon bo'lishi to'g'risidagi tomoshabinlarga xabar yetkazishni odatiy usuliga aylangan qog'oz vositasi.	a strategy indicating the specific target markets and the types of competitive advantages that are to be developed and exploited
Fon	Kinofilmlar yoki spektakl tayyorlanish jarayonida sahna va inshootlarga beriladigan tasvir rangi u kino nufuzi va saviyasini ham belgilaydi.	a paid form of non-formal communication that is transmitted through mass media such as television, radio, newspapers, magazines, direct mail, public transport vehicles, outdoor displays and Internet
imidj	Sahnada rol ijro etayotgan aktyorning odatiy soch turmagi yoki kiyimlardan foydalanishi.	a person or company that buys and sells works of art
Syujet	Asarni keyingi sahna kurinishlari bilan bog'lashga xizmat qiluvchi badiiy sar unsurlaridan biri	the practice of creating, promoting, or maintaining goodwill and a favourable image among the public towards an institution, public body
Rol	Aktyorga bajarilishi kerak bo'lgan ijro vositasi u senariyda qanday bo'lsa shu tarzda amalga oshirilishi lozim.	the giving out of information about a product, person, or company for advertising or promotional purposes
Prodyusser	Film yoki spektaklni boshdan oxirigacha inventarlar va aktyorlarni moddiy qo'llab-quvatlovchi rahbar.	a strongly felt aim, ambition, or calling

VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 20 yanvarda qabul qilingan “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-sonli Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 8 maydagi Ommaviy ijroga mo‘ljallangan dramatik, musiqali va musiqali-dramatik asarlar yaratganligi uchun mualliflik haqini to‘lash tartibi to‘g‘risida nizomi
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3920-son Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4584-son Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 noyabr “Respublikada ayrim davlat teatrlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 754-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 sentabr “Tomosha» bolalar musiqiy teatr-studiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 754-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 avgust “Kinematografiya sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 695-sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 iyun “Xalqaro sirk san’ati festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 535-sonli Qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 14 iyun “O‘zbekiston Respublikasida kinoturizmni jadal rivojlantirish va mamlakat kino jozibadorligini keng targ‘ib qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 499-sonli Qarori

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 may “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzuridagi xalqaro festivallar direksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 444-sonli Qarori

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 martdagi “Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 329-sonli Qarori

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 apreldagi “«Diydor» yoshlar eksperimental teatr-studiyasi» faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 266-sonli Qarori

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrda “Filmning ommaviy namoyishini amalga oshirish uchun bir martalik ruxsatnoma berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1012-sonli Qarori

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 noyabr “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va toshkent shahrida yoshlarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etish orqali ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 923-sonli

Qarori

III.Maxsus adabiyotlar

27. Arastu. Poetika. Yangi asr avlodi, 2016
28. Usmonov R. Rejissura. T.:Fan, 1997.
29. Salimov O. Kasbim rejissyor. – T: Fan, 1997
30. Azizov T. Mening rejissyorlik ishlarim. – T.: Konsalt, 2008.
31. Isroilov T. Rejissura. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.
32. Abdusamatov H. “Drama nazariyasi”. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 2000 y.
33. Abdusamatov H. “Sahna sardori”. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2003 y.
34. Aleksandr Mitta. Kinoda rejissura va dramaturgiY.-T.. 2014.
35. Andrey Angelov. Prakticheskaya rejissura kino. –M.; Lennex Corp, 2018. -200 s.
36. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
37. Djumanov I. Badiiy so‘z mahorati.-T., 2015.-157 b.
38. Zufarov U. Sahna talqini va tahlil.-T.:Musiqqa, 2007.
39. Ismoilov A, Usmonov SH, Ismoilov D, “Sahna harakati va jangi”. T.: Navro‘z, 2015.-265 b.
40. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. O‘zDSMI, 2005.
41. Qodirov M. O‘zbek teatri tarixi. T.: Ijod dunyosi, 2003.
42. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
43. Rasulov S. Ekran san‘atida tasviriy yechim va uning asoslari.-T. O‘zDSMI, 2008.-172 b.
44. Sayfullayev B., Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. -T.: Fan va texnologiya, 2012.
45. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.Xo‘jayev tarjimasi S.Muhammedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010.
46. Tulyaxodjayeva M., Qozoqboyev T. Drama nazariyasi.-Toshkent O‘zDSMI, 2014.
47. Andrew Paquette. An Introduction to Computer Graphics for Artists.-Springer Publishing Company, Incorporated, USA 2013.
48. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
49. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.

50. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
51. Mitchell. H.Q. , Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
52. Mitchell. H.Q. “Traveller” B1, B2, MM Publiciations. 2015. 183
53. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.

IV. Internet saytlar

54. <http://edu.uz>
55. <http://lex.uz>
56. <http://bimm.uz>
57. <http://ziyonet.uz>
58. <http://www.dsmi.uz>.
59. <http://www.kino-teatr.ru>
60. <http://artyx.ru/>